

**PAXTAKOR TUMANI AXBOROT-KUTUBXONA  
MARKAZI AXBOROT-BIBLIOGRAFIYA XIZMATI  
TOMONIDAN TAYYORLANGAN**

**O'zbekiston xalq shoiri Rauf Parfi  
tavalludining 80 yilligiga bag`ishlangan**

**ESLATMA**



**Paxtakor TAKM**

## Rayf Parfi-millat shoiri.

Rauf Parfi - shoir, tarjimon. O'zbekiston xalq shoiri (1999), Mahmud Qoshg'ariy nomli xalqaro mukofot laureati (1989), Turkiya Davlat adabiyot mukofoti laureati (1996). Tahallusi Uzturk. Isyonkor iste'dodli va taqdirli shoir. 1943 yil 27 sentabr kuni Toshkent viloyati, Yangiyo'l tumani, Sho'rali shaharchasida oddiy dehqon oilasida tug'ilgan.

Otasi Muhammad Amin Parfi (1893-1955) va onasi Sakina Isabek (1913-1995) butun umrini ona qishlog'ida o'tkazishgan. Maktabni tugatib, 1960-1965 yillar Toshkent Davlat universitetida o'qigan (hozirgi O'zbekiston Milliy universitet).

Rauf Toshkent Davlat universitetining jurnalistika fakultetini yakunlagan.

1991 yildan hukumat boshqaruvchilar bilan "nizo" sababli, Parfi sakkiz yilga, deyarli adabiyotdan chetlashtiriladi. 1999 yil kutilmaganda O'zbekiston xalq shoiri sharafiga loyiq topiladi. Umrining so'nggi yillari



Parfi kitob sotib, tirikchilik qiladi (kitob bilan savdo qiluvchi do'stlari unga noyob kitoblar izlashni topshiradi, u esa ularni izlaydi). Hurmatga sazovor bir nechta senariy yozgan - birortasi amalga oshmagan.

1989 yilgacha 8 ta she'riy kitobi nashrdan chiqqan. To'qqizinchi va tirikligidagi so'nggi kitobi 2000 unvon topshirilgandan so'ng

O'zbek tilidan mukammal bilgan. ravon o'qigan, talaffuzidan 1986 yil Rauf she'riy to'plami nomidagi uyushmasining taqdirlangan.



tashqari, turk tilini ham Rus tilini yaxshi tushungan va ammo so'zlarni noto'g'ri iymanib, so'zlashmagan. Parfning "Sabr daraxti" nomli nashrdan chiqib, Hamid Olimjon O'zbekiston Yozuvchilar yillik mukofoti bilan


Turkiyada o'tkazilgan tanlovda Rauf Parfi birinchilikni qo'lga kiritgan.

Umri davomida keyingi she'riy to'plamlarni yaratgan: "Karvon yo'lli" (1968), "Aks sado" (1970), "Tasvir" (1973), "Xotiro" (1974), "Ko'zlar" (1976), "Qaytish" (1981), "Sabr daraxti" (1986), "Sukunat" (1991), "Tavba" (2000).

Vafotidan so'ng nashr etilgan kitoblari - "So'nggi vido" (2006) va "lymon asiri" (2006).

Umrining so'nggi yillari Parfi "Sharq yulduzi", "Yoshlik", "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" kabi tahririyatlarda faoliyat yuritgan.

Rauf Parfi e'tirof tanilmagan va shuhrat qozongan, hayotning baland-pastini ko'rgan, ammo hukumat tomonidan siylanmagan shoir. Chinakam she'riyat va so'z shinavandalarining chuqur e'tirofiga sazovor bo'lgan. O'zbek she'riyatiga yangilik oqimini olib kirgan haqiqiy rassomni tan olmaslik - bu mangu, doimiy mavzudir: yaratuvchi-rassom va hukumat. Bayron ("Manfred"), Nozim Hikmat ("Inson ko'rinishi"), Karl Kaladze ("Dengiz bo'yidagi o'ylar"), Enver Selyamet ("Oltin bolta") kabilarni o'zbek tiliga tarjima qilgan.



Rauf Parfi — dan ziyod kitob muallifi, jumladan “So'nggi vido” va “Vijdon mahbusi” vafotidan so'ng nashr etilgan. O'zbekiston xalq shoiri (1999), Mahmud Qoshg'ariy nomli xalqaro mukofot hamda Turkiya Davlat adabiyot mukofotlari laureati (1996).

Rauf Parfi 2005 yil 28 mart kuni 61 yoshida yurak hurujidan vafot etgan.



*“Otam menga qanday yashashim lozimligini aytmadı. U yashadi va hayotini kuzatishimga izn berdi”.*  
*Klarens Kelland*

Yozish...

Qo'lingga qalamni olib, nimadir yozish osondir balki, lekin yozayotganining hayot kitobining qadrli sahifalari bo'lsa, sahifalarda qolgan yaqinlaring haqida bo'lsa, mushkullik qilarkan. Ular bilan o'tgan damlar xotirasini ifodalaguvchi go'yo hech so'z yo'qdek, olislarda qolgan u xotiralarning qalba beradigan taftichalik so'zlarning quvvati, iliqligi yo'qdek ...

Yangiyo'l... Oyi... Sho'ralisoy... Sakina buvi... Rauf aka... avtobus... shanba-yakshanba... Bolalik va yoshlik yillarimni, otam bilan o'tgan damlarni eslasam, albatta, birinchi bo'lib bu qadrli so'zlar xayolimdan o'taveradi.

Ota... Sening yaralishingga vositachi bo'lguvchi, o'zining hayot yo'li bilan senga yashashni o'rgatuvchi Inson. Ota... U sen bilan butun umr birgami-yo'qmi, katta odammi-yo'qmi, ichuvchimi-yo'qmi, voyaga yetkazdimi-yo'qmi, kim bo'lishidan qat'i nazar, sening Otang bo'lib qolaveradi.

Rauf Parfi O'zturk, O'zbekiston Xalq shoiri, Millat shoiri.

Otam haqida so'z ketganida, eng avvalo, Sakina buvimni tilga olgim keladi. Sakina buvim – Rauf Parfining onalari asli farg'onalik, Vodil qishlog'idan. Otamning otasi – Parfi Muhammad Aminning ham yangicha, ham eskicha savodi bo'lib, fors-tojik, usmonli turkcha, rus tillarini yaxshi bilgan. Lekin hamma hujatlarda o'zini "savodsiz" deb yozdirgan. Taqdir taqozosi bilan o'tgan asrning 30-yillarida Sakina buvimni olib Farg'onadan Toshkent viloyatining Yangiyo'l tumanidagi Sho'ralisoy qishlog'iga ko'chib kelishgan. Rauf Parfi (Tursunali Parpiyev) ham Sho'ralisoy qishlog'ida 1940-yilda (Akademik N.Karimov va dotsent O.Oltinbek imzolari bilan chop etilgan "Rauf Parfi qachon tug'ilgan?" nomli maqolada ("O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasining 2020-yil 21-mart (12) soni) shoirning tug'ilgan sanasi 1940-yil ekanı asoslangan. Biz ham shu fikrga qo'shilamiz – muallif) dunyoga kelgan:

*"Tavalludim: 43, mezonning yigirma yettisi,  
Otam bog'bon. Savodsiz, bizningcha,  
Onam pillakor. Savodsiz, bizningcha,  
Ilm olishga vaqtłari bo'lmagan ularning..."*

Sakina buvim ajoyib, mehribon inson edi. Farg'ona haqida ko'p gapirib berardilar. Ular doimo nimalar bilandir mashg'ul: kelinlarga ko'rpačalar qavir, to'ylarga somsa pishirar, shuning uchun bo'lsa kerak, uylariga qo'shnilar, kampirlar tez-tez chiqib turishardi. Yaqin hamrohlari uydagi mushuk bo'lib, u bilan bemalol gaplashardilar, mushuk ham buvimni go'yo tushungandek edi. Keyin o'ylasam, bu yolg'izlikdan ekan...

Bobom – Parfi Muhammad Amin vafotidan (1955) so'ng buvim boshqa turmush qurmadir, otamni, faqat otamni deb o'tdilar. 1968-yilda otam onam bilan Toshkentga ko'chib ketishadi. Buvimga ham birgalikda yashash taklif etilgan, lekin buvim ko'p qavatli imoratlarda yashay olmayman (9 qavatli uyning 9-qavatida), yerda yashab o'rganganman, deb rad javobini bergenlar. Haqiqatan ham, buvimni Yangiyo'lga (men katta bo'lgan shahar) oyimnikiga olib kelsam, zo'rg'a kechgacha o'tirib, keyin yana uylari tomon oshiqardilar, balki o'g'llarini kelib qoladi deb o'ylagandirlar.

Sakina buvum faqat otamni – Rauf Parfini intizorlik bilan kutardilar. Hanuz esimda, buvumning uylari ariq bo'yidagi tepalikda joylashgan bo'lib, kichkina bir uycha edi. Rauf Parfi ham shu kichkina uychadan Toshkentga uchirma bo'lgandi. U paytlarda Toshkent – Yangiyo'l avtobusi qatnardi. Buvimnikiga borsam, ko'chaga chiqaverardilar, menga aytmasdan otamni kutardilar. Avtobuslar bir xil bo'lib, biz uni "ekspress" derdik. "Buvi, ana, yana avtobus o'tib ketdi", desam, buvum sekingina qarab qo'yib: "E yo'q, bu avtobus Xalqobodniki, Toshkentnikining hoshiyasi ko'k", derdilar. Sakina buvum otamni shu darajada kutganlardan biz uchun bir xil bo'lgan avtobuslarning hoshiyalarini ham farqlab olgandilar. Keyin e'tibor bersam, Yangiyo'l-Xalqobod avtobusida men qatnardim, bu avtobusning hoshiyasi qizil edi. Hoshiyasi ko'k avtobusda kelishi kichkina uyda sog'inch bilan bir umr kutilganini otam ham his qilganlari aniq:

*"Men bilaman vujuding bo'zlar,  
Bag'ring yonar sayoq o'g'lingga.  
Seni o'rtar bir og'ir so'zlar,  
Axtarib chiqarsan yo'limga.  
Ko'chalarga qaraysan har zum,  
Kechalarni oqlaysan, ona.  
Gunohkorman yolg'iz men o'zim,  
Yana meni oqlaysan, ona..."*

Shunday holatlar ham bo'lardi: intizorlik-la kutilgan daqiqalar, "Kechqurun boraman", degan o'g'il uchun osh damlanar, u yeyilmasdan buvum bilan kutilar, lekin kelinmasdi... Farzandiga bo'lgan cheksiz sog'inch tufayli ko'rinxaymaydigan bekatlar orasidagi masofa va vaqtlar ham yod bo'lib ketgandi, go'yo. Hozir ham hayron bo'laman, nega buvum otamni "Rauf aka", derdilar. "Rauf aka" esa Toshkentda, o'qishda, ishda, xalq bilan, oilasi bilan...

Buvim sog'inib kutadigan avtobus men uchun ham shu qadar qadrli ediki, bu avtobusda Sho'ralisoya buvimni ko'rishga, otam bilan uchrashishga borardim. Taqdir taqozosi bilan ota-onalar ajrashib ketishgan va ikkovlari ham oilali edilar.

Menda otam haqidagi xotiralar, otamni tanish jarayoni aynan Sho'ralisoyda, dam olish kunlari – shanba-yakshanbadan boshlanadi. Ota-onam besh yoshlarimda ajrashib ketishgan bo'lsa, besh yoshgacha bo'lgan davrda ham ota-onam bilan yashamaganligim, buvilar qo'lida katta bo'lganligim bu borada oldimga bir qancha cheklolvar qo'yadi. Sho'ralisoyning men uchun qadrli ekani ham otam bilan uchrashadigan joyim bo'lganligida edi. O'sha ariq bo'yidagi tepalikdagi uychada Sakina buvumning yokisor mehrini his qilish, otamni ko'rish, suhbatlashish imkoniga ega bo'lardim. Otamning keyingi turmushlaridan bo'lgan singillarim Munojat va Sevinchni ham aynan o'sha yerda taniganman.

Onamning aytishlaricha, Sakina buvum yagona farzandini Sho'ralisoyda olib qolish uchun ulardan avval Muhabbat ismli jiyanlariga rasmiy uylantiradilar, ammo otam u

ayol bilan bir kun ham yashamaydilar. 1967-yilda onam - Muhabbat opaga uylanadilar. 1968-yilda akam Shuhrat (asli ismi Abdullajon), 1970-yilda men dunyoga kelamiz. Afsuski, ikki qarama-qarshi qutb vakillari bo'lgan ijodkor va iqtisodchi turmushda murosa qila olmasdan 1975-yilda ajrashib ketishdi...

*"Hayhot, xiyonatning yetimi bo'lib  
Yig'lab qoldi ikki qora ko'z..."*

Menda otam bilan bog'liq Sho'rasisoy xotiralari bo'lgani holda, keyinchalik singillarimdan eshitib bilganim, otam ularni ko'tarib yurganlari, maktabga chiqqanlarida ota-onalar majlisiga borishlari, kitoblarni oldilariga qo'yib, "Bugun mana bu betdan mana bu betgacha o'qib qo'yishing kerak" degan talablari, men "Lenin-Lenin" deb yurgan bir paytda ular Cho'lpon, Fitrat she'rlarini yodlaganliklari... va shularning menda bo'limgani alamli. Buvimnikiga bormay qolgan paytlarimda otam bувимникiga kitoblar tashlab ketardilar, kitobga lotinchada "Qizim Muqaddasga" deb yozilgan bo'lardi. O'sha paytlarda lotin yozuviga hali o'tilmagandi. Otam bilan bog'liq xotiralar otamning yon-atrofidagi tanish-notanish, do'st-birodarlaridagi kabi faqat uchrashuvlar asnosida saqlanib qoldi. Ular bilan keyingi birga o'tgan damlarim, bevosita, mening Yangiyo'lidan Toshkentga qatnashim, universitetga kirishim bilan bog'liq holda kechgan. 1987-yil Yangiyo'l shahridagi maktabni bitirib, ToshDUNing O'zbek filologiyasi fakultetiga hujjatlarimni topshirmoqchi bo'lganimda otam "ToshDuga emas, Rus tili va adabiyoti intitutiga topshira qolgin, dushman tilini ham o'rganish kerak", dedilar. Hech esimdan chiqmaydi, u paytlarda nima uchun "dushman tili" ekanligini tushunolmaganman. Balki mubolag'a tarzida aytgandirlar, noroziliklarini shunday bildirgandirlar deb o'ylaganman. Buni keyinchalik angladim...

Shogirdlari Muhammad Yusuf (O'zbekiston Xalq shoiri)ni chaqirib, meni Respublika Rus tili va adabiyoti pedagogika institutiga olib borishlarini iltimos qildilar. Shoир ham mammuniyat-la o'zi o'qigan dargoh bilan tanishtirib keldi. O'qishga kirdim. Toshkent va o'qish bilan bog'liq hayotim otam bilan ko'proq muloqot qilishga imkon berdi. Bu davrlarda otam orqali ijodkorlarni ham tanidim.

O'qishdan chiqib ba'zan uylariga, ba'zan ishxonalariga (Navoiy ko'chasi 30-uy) borardim. Otam oilasi (Dilorom opa, singillarim Munojot, Sevinch) bilan "G'uncha" kinoteatri orqasidagi 3 xonali uyda istiqomat qilishardi. Uylariga borganimda otam kitoblar bilan mashg'ul va albatta, shogird-ijodkorlar bo'lardi. Keyin bilsam, ular oylab, yillab birgalikda yashagan (shogirdlar xotiralaridan) ekan.

Ajoyib uchrashuv joylarimizdan yana biri ishxona yonidagi oshxona edi. Bu oshxonaning ijodkorlarga yaxshigina ma'lum bo'lgan "Mo'minxona" degan nomi ham bor edi. U yerda ham tabiiy ajoyib, ham otamning tanishlari, ijodkorlar, suhbatiga kelguvchilar talaygina bo'lardi. Otam bilan qaysi davraga kirib bormaylik, "Rauf aka tanishtirmsizmi, kim bu?" deyishsa, "Muqaddas - mening qizim - shaxsiy qizim", derdilar.

Yillar o'tdi... Otam Dilorom Is'hoqova bilan ham ajrashib ketganlaridan so'ng Sulhida opa bilan turmush qurishdi, ular Yangiobodda, zavod orqasidagi to'rt qavatli, yotoqxonaga o'xhash bir binoning 3-qavatida turishardi (Aslida, otamga Do'rmondan uy berilgan bo'lib, qaysidir bir boshqa ijodkor o'g'lini uylantirishi kerak bo'lgan-u, otam Do'rmondan berilgan uyni unga berganlar va o'zları umumiy yotoqxonaga o'xhash uyga ko'chib o'tgandilar). Eslayman, qorong'u va tor yo'lakdan kirib boraman, o'ng tomondagi eshikni taqillataman. Eshik ortidan otamning "Kim bu, yaxshi odam?" degan ovozi keladi. Men go'yo otam men – qizlari kelganimdan g'oyat xursand bo'lib shunday desalar kerak deb o'ylardim. Keyin bilsam, eshik qoqib kelgan barchaga "Yaxshi odam keldi" deyilar ekan. Uylariga kiraman, kichkinagina oshxona. Gaz, shkaf joylashgan. Muzlatgich o'rniga ham uning vazifasini o'tovchi sovuqxona bor edi, lekin otam ta'biri bilan aytganda jazirama issiqda "jon saqllovchi xona" edi. Kichkina oshxona otamning xonalari bo'lib, xontaxta atrofiga ko'rpacha to'shalgan. Xontaxta usti qalin-qalin kitoblarga to'la bo'lar, chetdan qarasam, bu kitob-u qog'ozlar qurshovida o'tirib og'ir o'yga cho'mib qolgan bo'lardilar.

Bir odatlari bor edi: biror narsani yozyaptilarmi yoki o'qiyaptilarmi, to uni o'zları yopmagunlaricha o'shanday holatda stol ustida ochiq turishi kerak edi. Shuning uchun bo'lsa kerak, stollarining usti yoyilib turardi. Devorda esa Sulhida opaning qizlari Sevara chizgan – "Bizning oila" deb yozilgan rasm osib qo'yilgandi. Rasmdagi tasvir hanuz yodimda, oq varaqda to'rt kishining qiyofasi: ota-on, aka va singil. Otam yoshlida Yangiyo'l shahridagi kechki maktabda o'qiganlar va bosmaxonada ishlaganlar. Kitoblarining nashr qilinishi taqiqlangan, o'zları ham hech qayerda ishlamayotgan bir paytda sotish uchun daftarcha (bloknot) yasardilar. Xontaxta ustidagi ana o'sha qalin-qalin, katta-katta kitoblar presslash vazifasini o'tardi. Aynan shu jarayon otamni iqtisodiy tang kunlarda qutqarib qolgandir. Otam o'zları ham aytardilar: "Qayerga bormay, qayerga ishga kirmay, yopilib ketadi. U yoqqa bordim – yopilib ketdi, bu yoqqa kirdim – birpas ishladi-da, u ham yopilib ketdi". Yengil hazil ostida biz anglab-anglamagan ma'noli, g'aroyib gaplari ko'p edi. "Ada, yaxshi yuribsizmi?" degan savolimga "Yuribman, lallayib", degan javobni olardim yoki "Ada, yolg'on gapirmang", desam "Yo'q, men yolg'on gapirmayman, yolg'on yomon, hech qachon yolg'on gapirmaganman, lekin aldagman", derdilar jilmayib. "Yolg'oon... yolg'on dahshatli, men aldayman". Otam uchun aldash bilan yolg'on gapirish boshqa-boshqa mazmun edi.

*"Alda meni, sevgilim, aldab yashash oson...*

*Mardi maydon deb ayt, saxovatli deb aytgin.*

*Hattoki, zo'r shoir deb ham aytaver, mayli,*

*O, yo'qdan bor qilursan deb aytgin, ishontir,*

*Mayliga, dunyoda tenging yo'q deb ayta qol!*

*Alda meni, sevgilim, aldab yashash oson...*

*Dunyodagi eng go'zal sensan, deyman-ku men ham,*

*Dunyodagi eng shafqatli sensan, deyman, sen, sen,*

*Deymanki, dunyodagi sensan eng vafoli yor,*

Deymanki, yo'q narsalarni talab qilmassan...

Alda, meni aldayver,

Aldab yashash oson?!"

Har bir harakatlariga yengil xirgoyi hamroh edi. Bu Sakina buvimda ham bor edi. Ehtimol, men borganimda xursandchilikdan o'zlarini shunday tutgandirlar... Lekin ishoning, biror marta ham otamni ichgan (mast) holatda ko'rmanaganman. Hattoki, yonimda chekkanlarini ham eslayolmayman. Tasodifan borib qolganimda ham bu holat hech qachon kuzatilmagan, ammo uyda tamakining hidi sezildi.

Otam ilmiy ishimning himoyasigacha bo'lgan jarayonlarda ham yelkadosh bo'ldilar. Tadqiqotim mavzusi turk tili bilan bog'liq bo'lGANI uchun tarjimalarda maslahatchi edilar. Shu bahonada do'stlari, tilshunos olim Baxtiyor Isabek bilan tanishganman. Ularning uyiga ko'p borganmiz. Uchrashuv dasturxonida, albatta, millat, xalq, ijod, adabiyot to'g'risida gap ketardi, bir otamga, bir olimga qarab qizg'in suhbatlaridan bahramand bo'lib qaytardim. Himoya chiqishimga ikki haftacha qolganda otamning oldilariga bordim. O'sha paytlarda himoya Akademiklar shaharchasidagi Alisher Navoiy nomidagi til va adabiyot institutida bo'lar edi. Himoya kuni belgilanganini aytdim. "Yur, himoya qiladigan joyingni ko'rib kelamiz", dedilar otam va biz institut tomon yo'lga chiqdik. Sovuq va yomg'irli kun edi, bo'ynilarida qizil-oq rangli sharflari, oz-oz yo'talib ham turgandilar. Uylaridan institutgacha avtobusda otam bilan yonma-yon o'tirib suhbatlashib ketdik. Institutga bordik, darvoqe, adamning qo'llarida daftar bor edi (qo'lyozma), uni do'stlari adabiyotshunos olim N.Rahimjonovga berib keldilar.

Ushbu suhbat suhbatlarimizning, avtobusda birga yurishlarimizning so'nggisi ekanini o'shanda bilmagandim. Yaxshi ham taksiga emas, avtobusga chiqqan ekanmiz – yo'limiz bir qadar uzoqroq cho'zilgandi. Oradan hech qancha o'tmay, otam kasal bo'lib yotib qolgan ekanlar. Vaholanki, himoyada otam keladilar deb rosa kutgandim (onamni himoya jarayoniga keltirmagandim, ularning tasodifiy uchrashuvidan qo'rqqandim). O'zimcha otamdan xafa bo'ldim. Uylariga bir muddat bormadim. Mart oyining boshlarida to'satdan, negadir ko'rgim keldi. Sog'inch va yoqimli suhbat meni ular tomon chorladi. Uyga kirdim, bu safar eshikni taqillatishimning hojati yo'q edi, oshxonada, ijodxonalarida yotgan edilar. Go'yo bahaybat bir insonning kichkina gavdasi biroz kasallangan ko'rinishda menga tabassum bilan yuzlandi. Himoyamga va'da berib kelmagan otamga gaplarim ko'p edi... Sulhida opa "Otangiz kasalxonaga bormayaptilar, davolanishga rozi bo'lmayaptilar", deganida "Vahima qilmang, yaxshiman", dedilar. Uyga kelib turmush o'rtog'im (shifokor) bilan qaytib bordim. Bu ularning birinchi va so'nggi uchrashuvi edi. 2005-yilning mash'um 28-mart kuni Tursunali polvon qo'ng'iroq qildilar. Zulkumor opam (Sakina buvimning jiyani)larnikiga Shuhrat akam bilan tez yetib kelishimni aytdilar. Bu orada Tursunali akalar otamni Yangioboddagi uylaridan shoir Chorsha'm Ro'ziyev (kuyovlari)ning hovlisiga olib kelishgan ekan... Uyga kirib borganimizda Tursunali polvon, Chorsha'm aka, Zulkumor opam, Dilorom opa, Munojat, Sevinch o'sha yerda edi. Otam esa ko'p dard chekkanlaridan ozib ketgan, nafas olishlari qiyinlashib,

tomoqlarida hirqiroq bor edi. Tursunali polvon “Rauf aka, farzandlaringiz, yaqinlaringiz yoningizda turubdi. Ulardan rozi bo‘ling, ular ham sizdan rozi”, dedilar. Ko‘zlar ochildi, bu ko‘zlar kimnidir kutgandek titrab ochildi-yu, Tursunali polvonning “Shuhrat ham shu yerda” degan gaplaridan so‘ng xotirjam, manguga yumildi...

“Xayr, dada,

*Biz endi ko‘risha olmaymiz dunyoda.*

*Bilamanki, sen tuproqda,*

*Bilamanki, sen qalbimning bag‘rida ochilgan yaproqda...”*

...Otamning so‘nggi yashagan uylariga to‘rttadan oshiq odam sig‘masligi, ko‘ngil qadrdonlarning suykli shoiri shunday uydan chiqishini xohlamaganliklari uchun Chorsha’m akalar otamni tez yordam mashinasida uylariga olib kelishgandi. Ularning uyida ham otamning o‘z ijodxonalari bo‘lgan ekan. Aynan shu ijodxonadan so‘nggi manzillari, chin makonlari bo‘lgan “Minor”ga kuzatildilar. Nazdimizda, otam har qanday kasallikni yenga oladigan, go‘yo hech qachon o‘lmaydigan odam edilar. Hamisha o‘limga tik qaragan, o‘limdan qo‘rqmagan odam edilar.

“Inson doimo o‘lim bilan yonma-yon yuradi. Toshbaqa kosasini bir umr ortib yurganidek, inson o‘z o‘limini doimo ko‘tarib yurishga mahkum. Menimcha, o‘z o‘limini ko‘tarib yurgan odam Allohga, o‘ziga, birovga xiyonat qilmaydi...” Umrining so‘nggi daqiqalarida, betob bo‘lib yotganlarida ham shifokorga borishni xohlamadilar. Qancha urinmaylik, buning uddasidan chiqqa olmadik. Butun umr o‘zlarining haqiqatlari bilan yashab o‘tdilar. Dilorom opa “Rauf Parfi yaxshi umr yo‘ldosh bo‘limgandir, yaxshi ota bo‘limgandir, lekin u millatning Odami edi...”, derdilar. Moddiyat tushunchasi hech qachon qiziqtirmadi, o‘zlarining iboralari bilan aytganda, “kichik vatan” uchun emas, “katta vatan” uchun, she’riyat uchun, xalq, millat uchun yashadi. Otam uchun “Xalq shoiri” unvoni ham bir “qog‘ozcha” edi. Kitoblari nashr etilmayotgan, hech narsa, hatto nonga zor bo‘lgan kunlarda Turkiya, Germaniyadan yashash uchun borishga takliflar bo‘ldi. Ammo barchasiga rad javobini berdilar. Hech kimga hech qachon qila olmaydigan ishlari uchun va’da bermaganlar.

Otam bilan birga yashamaganim holda, xotiramda faqat shanba-yakshanba – dam olish kunlaridagi va undan keyingi, uzog‘i bilan bir kunga cho‘ziladigan uchrashuv va suhabatlar qolgan bo‘lsa-da, menga bir Ustoz, bir Ota sifatida ko‘p narsalarni o‘rgatib ketdilar. Esimda, oyim (onamning onalari) olamdan o‘tganlarida motamni anglatuvchi kiyimda ishga borardim, shunda otam “Bo‘ldi, o‘lgan o‘lib ketdi, sening atrofingdagilar sening azadorliginga aybdor emas, ayniqsa, talabalaring. Sen auditoriyaga bunday kirib borishing mumkin emas, talabalaring bilan muloqot qilishingga xalal beradi”, dedilar va bu haqiqat edi. Talabalar meni ko‘rib har doimgi darsdagi erkinliklarini yo‘qotishdi, ularda menga nisbatan uyg‘ongan hamdardlik hissi har doimgi erkinliklarini chekladi. Shundan buyon har gal auditoriyaga kirar ekanman, otamning gaplari yodimga tushadi, hayotimdagи hamma muammolarni, voqealarini auditoriya eshididan ortda qoldirishga harakat qilaman va go‘yo otamning niyatlari mening ham hayotimga ko‘chib o‘tgan-u, shiorga aylangandek bo‘ladi:

*“Niyatim:*

*Tinish belgilari singari sodiq bo'lmox –  
Kasbimga, darslarga va orzularga...”*

Anglaganlarim: inson hayotga moddiyat uchun kelmaydi, insonda qalb bor va u qalb har safar o'zinikini gapurishi kerak emas, shart. Ichingda, qalbingda nima deyotgan bo'lsang, u hayotingda o'z aksini ko'rsatishi kerak. Qalbingdagi haqiqating ichingda qolib ketishi mumkin...

*“Avtobus derazasidan qarab ketsang  
Uzoq-uzoqlarga...”*

**Muqaddas ABDURAHMONOVA,  
filologiya fanlari nomzodi**

## **RAUF PARFI SHE'RLARI TO'G'RISIDA**

Rauf Parfi she'rlari zamonaviy o'zbek poeziyasida tamomila o'ziga xos hodisadir. Uning ijodida biror voqeani tasvirlashga bag'ishlangan voqeaband she'rlar yo'q hisobi. U inson ruhining kuychisi. Qadim o'tmish ham, bugungi muhim hodisalar ham shoir tuyg'ulariga qattiq ta'sir etadi va muayyan kayfiyat uyg'otadi. Rauf Parfi o'z she'rlarida ana shu kayfiyatlarning manzarasini rassom kabi aniq chizadi. Uning she'rlari o'quvchini o'yga toldiradi. Tasavvur dunyosi keng bo'limgan, o'zining kechinmalarini kuzatib o'rganmagan odam bu asarlarni birdaniga tushuna olmaydi. Rauf Parfi - obrazli fikrlashga moyil shoir. U jo'nlikdan, hammaga ma'lum gaplarni aytishdan qochadi. Har qanday voqeal-hodisaning hech kim payqamagan jihatini ko'ra biladi va shu tufayli paydo bo'lgan holatning haqqoniy manzarasini yorqin chizadi. Shuning uchun ham «tong otdi» degan oddiy xabardan juda go'zal poetik obraz yarata oladi:

Tong otmoqda. Tong o'qlar otar,

Tong otmoqda, quyosh - zambarak.

Yaralangan Yer shari yotar,

Boshlarida yashil chambarak.

Ular ko'kka uchgan qanotli xabar;

Tonggi quyoshdan taralayotgan olov nurlari tong **Balkot qumug'lar oshki** boshqasi,  
nurlarni taratayotgan quyoshning o'zi esa zambarakka o'xshatilayotir.  
Nurga cho'milgan Yer kurrasi o'sha o'qlardan yara **Kullas pastlalar**

bu o'qlar tufayli Yerning boshida yashil chambara **Joyzilchimayor...**  
Tabiatning qanchalik shoirona tasviri! Ayni vaqtida o'xshatishlar  
naqadar aniq! Rauf Parfining she'rlari bir qarashda **Lekin Xorazmda** bu dam yer tanqis:  
tuyuladi. Aslida haqiqiy she'riyatda hamisha insonning dardi kuylanadi.  
Dard esa g'amgini **Yigirmanchi asr - temir barona**  
yuragini illatlardan, qabohatlardan tozalaydi. Alisher Navoiyning barcha  
asarlarida shuning uchun ham g'am yetakchilik qiladi. Rauf Parfi nimani  
qalamga olmasin inson ruhiyatini tasvirlashni asosiy magsad qilib  
**Yashil to qaylarning ochgan ildizin,**  
qo'yadi. «Ona Turkiston» she'rida ozod Vatan yo'lida boshini tikkan  
milliy qahramonimiz, tengsiz iste'dod egasi bo'lgan **Qayrumishko'llar**, duldulli qirlar,  
Qodiriy obrazi ham, «Cho'lpon» she'rida esa ona tilining, ona xalqining  
erki uchun o'limga tik qaray olgan mislsiz iste'dod **Huat jorat egasli** bezovta, ado?  
Cho'lpon ham his-tuyg'ulari og'ushida ko'rsatiladi. Shoир ularning  
ishlarini sanab o'tirmaydi. Balki bu ulug' odamlar **Ongsorlaryg'ylardai**, yer ibtidosi,  
kechinmalarini tasvirlaydi:

Davo giyohlarga boy qadim dunyo?!

Shu qadar yuragi tormidir - dunyo,

Nahot tabiatning o'zidek ko'hna,

Nahot farzandiga - o'ziga g'anim.

Boringki, yovvoyi, qo'rqinch burchagi  
«Avval shunday edi...» deyishga yoxud

Nechun sig'dirmadi, nechun, Vatanim?!

Qolmasa yerning o'z ulushi kabi.

Rauf Parfi tilning nozikliklarini chuqur his qiladi. Shuning uchun ham  
faqat so'zlarning emas, balki tovushlarning ham **Bir paytalar** mozor yo vaqf yerkarga  
ta'minlashga intiladi. Shu bois uning she'rlari o'quvchining esida  
qoladigan obrazlar bilan to'lib-toshgan bo'ladi: «**Yong'ir yog'ar,**  
shig'alab yog'ar. Tomchilar tomchilar boshimga» yoki «Poyezd chopar,  
poyezd chopar, Poyezd chopar Sibirdan. Abdullajon **Hech'kim tegolmasdi -**  
Qarorgohi temirdan». Rauf Parfi she'rlari o'zbek adabiyotidagi eng ilg'or  
usullarining badiiy ifodasidir. Uni tushunish sizning madaniy  
saviyangizni yuksaltiradi. Shoир she'rlarini tushunishning siri **Yer o'zi shaxd, sur'at farzandi,** lekin  
sabr bilan sinchiklab o'qishda. **Unga farzand bizing bobolar rasmi...**

Kelarlar muqaddas buzilmas safda,

Ana! Zil aylana chizib turnalar

O'zgargan bo'lsa ham ne davr-u davron.

Pastlarlar!..

Balki avval jahon - olis zamondan

To'kilar tuproqqa parlar...

Yiqilmang!!

Topurman ko'zim tubidan  
Siz uchun safoli muqaddas yerlar...  
Turnalar!  
Kelinglar, yelkamga qo'ning!  
Qo'llarimga qo'ning,  
Boshim,

Ko'ksimga...  
Ne tog'lardan oshgan ho'l qanotingiz  
Tars-tars urilsinlar yuzim-ko'zimga.  
Qo' ning!

Hadik olmang!  
Ko'ksim zarblari  
Erka belanchakdir najot pallasi.  
Yangi manzillarga ruh bersin sizga  
Xorazmning ko'hna, hazin allasi.  
O'zbeklar uy qursa, har farzandiga  
Albatta qoldirar atab bir chetin.  
Ey, siz, kelajakning bunyodkorlari,  
Turnalarga ozroq joy tashlab keting!

## ENG SO'NGGI XAZINA

Xudoyberdi Doniyorovga  
**I**  
Ko'p qiziqdir ko'hna moziy taqriri,  
Ko'p qiziqdir unda xalqlar taqdiri.

Agar kimdir mashhur esa qadimda,  
Yo'qdir bugun u hech kimning yodinda.  
Kimdir kecha xor-u xasga yursa teng,  
Bugun uning shon-shuhrati ko'kda deng.  
Nahot hech kim boqiy umr olmasa,  
Nahot hech bir zot ustuvor qolmasa?!  
Savol ko'pdir, ammo charxda tinim yo'q,  
Go'yo unda hech narsaga qo'nim yo'q!  
Shu taxlitda zamin-zamon do'nipti,  
Hamma shunga ko'nipti.

## II

Biri katta, biri esa kichikroq,  
Ikki urug' o'tgan ekan eski choq.  
Yeri, eli behad katta birining  
Va har jihat qo'li kalta birining.  
Xalqning fe'li o'z yeriga o'xsharkan:  
Katta urug' yalqov, loqayd yasharkan!  
Kichigi-chi, qaynagan qon, ishchan er,  
Mehnatidan zar tugarkan har kaft yer.  
Yondosh yashab, doim ol-ber qilishib,

Hech beg'araz borishib ham kelishib,  
Bul ikkovi chin qo'shniga do'nipti,  
Hamma bunga ko'nipti!

## III

Katta mulkka, katta yerga o'chlar ko'p,

1 Do'nipti - o'tibdi. 2 Ulli - ulug', katta.

Zimdan qarab, tish qayrovchi kuchlar ko'p.

Xo'sh, kichkina qo'shni-chi, u tiyran, qurch,

Bir kun ulli urug'ni yov bosibdi,

Jim turdimi, yo'q, yordamni bildi burch!

Naq g'oz uzra qirg'iy qanot yozibdi.

Shunday qilib ikkov bir saf bo'ldilar,

Ko'p qiribdi yov beparvo elatni,


Yovni birga olqon-talqon qildilar.

Boshiga ham solibdi xo'p kulfatni.

Urush tugab, qo'shni do'stga do'nipti,

Hamma shunga ko'nipti!

**ADASHGAN RUH**  
**TURSUN ALI MUHAMMAD**  
**Mashhur polvon va sport ustasi**



Shoir Rauf Parfini she'riyat muxlislaridan tanimagani yo'q. Biz Rauf aka bilan aka -uka bo'lib, Toshkentga borsak, doim ularnikida turardik. Shoirning hayotidagi ko'p qiziq voqealarning guvohi bo'lganmiz. Hozir sizlarga bir she'rning yozilish ta'rifiini aytib beraman.

Bir necha yil ijod qilolmasdan, yozsa ham o'ziga yoqmasdan yurgan kezlari ekan, menga hazil aralash hasrat qilib qoldilar:

-Polvon, bir mamlakatda mashhur yozuvchi bo'lgan. Hech narsa yozmay, kayf-u safo qilib yurganini ko'rgan do'stlari maslahatlashib, janjal ko'tarishibdi-da, yozuvchini aybdor qilishib, qamatirishibdi. Bir yarim oy qamoqda yotib, yaxshi bir asar yozib chiqibdi. Shu tariqa ma'lum vaqtadan keyin atayin qamatadigan bo'lishibdi. Har qamalishida bittadan asar tayyor bo'lar ekan.... Shu... meni ham bir joy bo'lsa- yu, qamab qo'ysalaring, balki biron narsa yozarmidim... — dedilar .

O'sha vaqtda Farg'onaning Log'on qishlog'ida ruhlar bilan davolaydigan Safiya opa degan ayol bo'lib juda ko'p odamlarni davolab dong'i ketgan edi. Nazarimda, Rauf aka ijodida ham ruhlarning aralashuvi bo'lgan-u, endi o'sha ruhlar kelmay qolganidan ijodi to'xtab qolganday edi. Chunki, Rauf Parfining she'rlarini o'qigan odam undagi ilohiyotni darrov his qiladi.

Qachonki biron satr bersangiz, darrov she'r yasab berar edi, va shu she'r ba'zi shoirlarning yaxshi she'richalik bo'lsa ham, Rauf aka uni albatta, yirtib tashlardilar:

— Nega yirttingiz? — desam,  
— Shunchaki bir yozdim-da, ruh yo'q bunda, – derdilar.

Farg'onaga qaytayotib, bir iloj qilib, shoirni o'zim bilan ketishga ko'ndirdim. Yo'lda ham, uyda ham Safiya opa haqida, u kishining karomatlari haqida, g'aroyibot bilan davolangan kasallar haqida gapirib, Rauf akaning qiziqishlarini orttirib bordim.

Va nihoyat:  
— Bir ko'rmaymizmi, o'sha ruhchi ayolni? – deb qoldilar.

Ertasiga ertalab Log'onga qarab yo'l oldik. Manzilga yetib borib, hayratdan yoqa ushладик, qishloq boshlanishidan yo'lning bir tomonida qator avtobuslar tizilib turardi. Va ularni butun Markaziy Osiyodan kelganlarini payqash qiyin emasdi. Qiziqib sanab ko'rsam, qirq oltita avtobus turgan ekan. Hammasing ichi turfa yoshdag'i hojatmandlar bilan liq to'la. Yengil mashinalarning to'lib ketganidan uylariga yaqin yo'lab bo'lmaydi. «Buncha odamni qanday qabul qilish mumkin», deb hayron bo'ldik. Keyin bilsak, odamlar bir to'planganlarida, ko'rindigan yerga chiqib, hammaga bir fotiha berib, kirib ketarkanlar. Katta avtobuslarga o'zlari chiqib bir nazar solib, fotiha berib jo'natar ekanlar. O'zlaridan oldin yordamchilari uyga borganda nima qilish kerakligini tushuntirishar ekan. Odamlarning siyraklashishini kutib turdik-da, o'g'lidan «Toshkentdan shoir keldi» deb xabar kirgizdim. Bir ozdan keyin yordamchi qizlardan biri bizni ichkariga olib kirdi.

Choqqina hovli. Pastak uylardan biriga kirdik. Xontaxta atrofiga oddiygina ko'rpachalar solingan, to'rida ikki yonlarida yoshlari kattaroq ayollar bilan oq ro'molga o'ranib, Safiya opa o'tiribdilar. Salom- alikdan keyin dasturxon popugini o'ynab turib, o'zlari bilan o'zlari gaplashayotgandek gap boshladilar:

— Bu kishi ham bizga o'xshab ancha charchabdilar, ikki-uch yillardan buyon ijod qilolmayaptilar ekan. Hammasi yaxshi bo'ladi... Ayollarining bir oyog'i qizir ekan... quloqlari ham og'riyapti.... Omin! Xudoning o'zi shifo bersin! – deb gaplarini tugatdilar.

Uyga qaytayotganimizda:  
— Qanday taassurot oldingiz? – deb so'radim, Rauf akadan.

— Yomon emas, ijod qilmayotganim, Diloromning oyog'i qizishi rost. Lekin qulog'i hech qachon og'rimagan, — dedilar. Ishonmaganliklari sezilib turardi. (Keyin bilsak, o'sha kunlar Diloromning qulog'i og'rib, kasalxonada yotgan ekan).

Yotar payti Rauf akaning qarshiligiga qaramay, alohida xonaga dasturxon tuzab, joy qilib yotqizdig. Ertalab turiboq so'radim:

— Qalay yotdingiz? Biron narsa sezdingizmi?  
— Umuman uxlaganim yo'q, kechasi bilan bosinqirab chiqdim, – dedilar.

Kechqurun soat to'qqizdanoq shoirni yana xonaga «qamadik».

Ertasiga ertalab Rauf akaning o'zlari:  
— Bugun onamning qornida yotgandek uxladim, endi menga qog'oz — qalam bering, – dedilar-da, yana xonaga kirib ketdilar. Ikki kunda bir turkumdag'i to'rtta she'r yozdilar. Beshinchisi chala qolib, Toshkentga ketdilar. Uch oydan so'ng yana qaytib keldilar:

— Polvon, bizning ilhom shu yerda qolib ketibdi, Toshkentda yozolmadim, – dedilar. Xullas, beshinchisi she'rni ham biznikida yozib, bitirdilar. Birinchi va ikkinchi she'rlarini esa, bizga bag'ishladilar. Qo'lyozmalari bizning uyda saqlanadi.

# IJODIGA MUNOSIB MUKOFOT

Bir kuni Chirchiq shahridagi ijodiy safarimiz chog'ida axloq tuzatish koloniyasiga borib xayriya tomoshasini ko'rsatmoqchi bo'ldik. Dasturni rang-barang bo'lishi uchun shoirlardan ham taklif etdim. Albatta, Rauf akam, do'stim Yo'ldosh Eshbek hamda ukamdek bo'lib qolgan Yahyo Tog'a. Oldiniga Rauf aka:

- U yerdagilar she'riyatni tushunarmidi? O'zingiz borib tomoshalaringni ko'rsatib kelavering, – deb ko'nmadilar. Lekin ko'plashib:

- U yerda ham odamlar yotibdi, faqat adashganlar. Ajab emas ularning ba’zi birovlarini she’riyatga oshno qilib qaytsak, – deb zo’rlab olib ketdik. Qattiq qo’riqlanadigan joyga kirish qiyin bo’lar ekan. Madaniy-ma’rifiy ishlar bo'yicha bo'lim boshlig'i kuzatuvida ming chig'iriqlardan o'tib ichkariga kirdik.

Bir yarim ming odam ishlaydigan koloniyada ikki yuz o'rindiqli klub bor ekan. Sirk tomoshasini eshitib keluvchilar shunchalik ko'payib ketdi-ki, tashqariga joy qilishga majbur bo'lishdi. Odam tumonat. Bitta tomosha ko'rsatamiz. Orada esa shoirlardan biriga so'z beramiz. She'rxonlik ham barchaga ma'qul bo'ldi. Yahyoning chapanichasiga yozilgan she'rlari, Yo'ldosh Eshbekning ertaklarga, orzularga yetaklovchi dostonlari olqishlar bilan kutib olindi. Tomoshamiz so'nggida Rauf Parfiga navbat tegdi. Iymanibgina bir-ikkita she'r o'qib, joylariga o'tirdilar. Hamma jim. Shu payt orqadan ellik yoshlardagi bir kishi karton qog'oz bilan yopishtirilib muqovalangan kitobni ushlaganicha to'g'ri Rauf akaning yoniga keldi va: – "Sabr daraxti" kitobini siz yozganmisiz? – deb so'radi.

Shoir esa hazil aralash:

- Shunday noma'qulchilik ham qilganmiz... – dedilar.

Yana hamma jim.

Boyagi odam qo'lidagi kitobni Parfining oldiga qo'ydi. U kishi yasama jildni ochgan edilar, ezilib, titilib ketgan, qo'ldan-qo'lga o'taverib hilvirab ketgan "Sabr daraxti"ni ko'rib ko'zлari hayratga to'ldi.

Mahbuss·

- Biz hammamiz ham sizning muxlislaringizmiz, bitta dastxat yozib bering, kitob hech kimniki emas, hammamizniki. – dedi.

Shunda bordan gulduros qarsaklar vangradi.

Yana she'rxonlik bo'ldi. Sovg'alar in'om etishdi. Birov ruchka, birov zanjir berdi.

Xavrlashib tashqariga chiqqanimizda Rauf aka ko'zlarini yonib ajoyib bir kayfiyatda:

- Mening ijodimga shu virtiq kitobdan ortiq mukofot yo’q – dedilar

RUHNING VAZNI

2005 yil boshlari edi. Farg'onadan Toshkentga kelganimizda Rauf akani betob yotganini eshitdim. Yashayotgan xonadonini topish ancha qiyin bo'ldi. Yangiobod tomonda ekan. Zo'rg'a topdik. Oldin umumiylarni bo'lgan bo'lsa kerak. O'rtada bir yo'lak, ikki tomonda eshiklar. Yo'lak qorong'i bo'lgani uchun eshik raqamini gugurt chaqib topdik. Eshikni 13-14 yoshli bola ochdi. Rauf akani so'ragandik ichkariga taklif qildi. Kichkinagina xonacha. Oshxona bo'lsa kerak. Gaz plitasi yonib turardi. Olov ustida hech narsa yo'q. Xonani isitish uchun yoqilgani ma'lum.

Rauf aka ko'p dard chekkanlaridan oriqlab ketibdilar. Mushtdekkina bo'lib o'tirgan ekanlar. Bizni ko'rib o'rinalidan turmoqchi bo'ldilar. Lekin madorlari yetmadi. Ayolim Gulchehraxon bilan o'zimiz borib ko'rishdik. Hol-ahvol so'rashganimizdan keyin bildim-ki miyalariga ozgina bo'lsa-da qon quyilgan. Chunki bir qo'llari yaxshi ishlamayotganidan va bir oyoqlari o'zlariga bo'ysunmayotganidan nolidilar. Birga choy ichdik. Kasalxonaga yotishlarini maslahat berdim, unamadilar.

Rauf aka bilan xayrlashib, jiyanlari Zulkumor va Chorsha'm Ro'zievlarnikiga bordik. Tog'asining betobligini yana eshitgan Zulkumor ertaga meni ham olib boring deb xoli joninga qo'ymadidi. Ularning aytishicha, hozir Rauf aka Angliyada yurishlari kerak edi. Ma'lum bo'ldiki, Rauf akani kasali qaytalanib safarga keta olmaganlar. Bularni ham xabardor etolmaganlar. Biz ertasi kuni yana bordik Rauf akani soch-soqollarri juda o'sib ketgan edi. Demak, anchadan beri ko'chaga chiqqanlari yo'q, ertasiga sartarosh olib kelib, sochlarni, soqollarini tekislashga va'da berib xayrlashdik.

Zulkumorning jiyani Zafarbek yaxshigina sartaroshligini bilardim. U bilan ertaga Rauf akaning oldilariga birga borishni maslahatlashdik. Rauf aka o'ziga ustoz deb bilgan shoir Shukrullo akaga qo'ng'iroq qilib ahvolni tushuntirdim va kasalxonaga yotmasalar bo'lmasligini aytdim. Shukrullo aka:

– Bu yog'ini menga qo'yib bering o'zim ko'ndiraman, – dedilar.

Ko'nglim ancha tinchidi. Lekin ertasi Shukrullo aka menga qo'ng'iroq qilib:

– Raufga "tez yordam" mashinasini yuborsam, "Polvon" soqolimni oldiraman degandi, soqolni olgandan keyin boraman" – debdi. Tezda sartaroshni olib boring, – dedilar.

Men Zafarni olib endi mashinaga o'tirayotgan edim, tog'asini ko'rgani borgan Zulkumor menga qo'ng'iroq qildi:

– Polvon aka, tezroq keling, akamning ahvollari og'irlashib qoldi.

Yetib borsam tomoqlarida hirqiroq bor. Nafas olishlari qiyinlashayapti. Bildimki ish chatoq, kelishib, Rauf akamni Zulkumorlarnikiga olib boradigan bo'ldik. Bemorni ko'rgani kelgan Rustam Safoev va Zafarjon uchchalamiz Rauf akani uchinchi qavatdan pastga olib tushmoqchi bo'ldik. Rauf aka ozib jussasi kichkinagina bo'lib qolgan edi. Men ko'tarishga qancha harakat qilmay xuddi qo'limizdan chiqib sirg'alib tushib ketayotganga o'xshardilar. Bir tomonlaridan Zafarjon ushladi. Lekin baribir yurishning iloji bo'lmadi. Shoirni ham ishga soldik. U oyoqlaridan, Men va Zafar bellaridan va bo'yinlaridan qo'l o'tkazib, mashinaga olib borguncha qora terga botib ketdik. Nega bu qadar og'ir bo'lib ketganlarini shu hozirgacha tushunolmayman.

Zulkumorlarnikiga kelguncha Rauf akaning oila a'zolariga tezda yetib kelishni tayinladik. Bemorni xonadonga olib kelib yotqizishimiz bilan Shukrullo aka yuborgan "tez yordam" mashinasi ham yetib keldi. Navbatchi shifokor ayol Rauf akani obdon tekshirtirgandan so'ng meni chekkaga chaqirib:

– Tayyorgarliklaringizni ko'raveringlar, oxirgi soatlari qolgan, – dedi.

Shunga qaramay shifokor bir necha dori-darmon, ukollar qildi. Rauf akada sal o'zgarish bo'ldi. Bu orada farzandlari Shuhrat, Muqaddas, Munojot va Sevinch, suyukli rafiqasi Dilorom, shogird va do'stlaridan Chorsha'm, O'rol Sodiq, Rustam Safo va boshqalar yetib kelishgan edi. Ular Rauf aka boshlarida yig'ilishdi. Shunda men – Rauf aka farzandlaringiz, yaqinlaringiz yoningizda turibdi. Ulardan rozi bo'ling, ular ham sizdan rozi, – dedim.

Shunda bexush yotgan shoir ko'zini ochdi. O'g'li va qizlariga bir oz termulib turdi-da, yuziga tabassumga o'xshagan bir narsa zohir bo'ldi-yu, oxirgi nafasini chiqardi.

Vo darig'o, bizni ayriliqning cho'ng qayg'usiga solib buyuk insonlardan biri shoir Rauf Parfi oramizdan ketdi. Meni bir narsa o'ylantirar edi. Hali soch-soqolini kalatlatib, tekislashimizdan oldin, jon taslim qilgan marhumning soch-soqolini olsa bo'ladimi yoki yo'q?

Rauf Parfi vafoti haqidagi xabarni eshitganlar orasidan birinchilardan bo'lib yetib kelgan yozuvchi Ahmad A'zam bilan birga Toshkent shahar bosh imom xatibi Anvar qoriga qo'ng'iroq qilib, bo'lgan voqeani tushuntirdim. Anvar qori: – Agar marhum o'limidan oldin o'zi soch-soqolini olib qo'ying degan bo'lsa, o'limidan keyin olish mumkin, – dedi.

Men suyab turdim, Zafarjon soqol-mo'ylablarini tekislab qo'ydi. To'kilgan soch qoldiqlarini yig'ishtirib olishlari uchun shoirni ko'tarib turdim. Ne ajabki endi Rauf akam tanasi qushdek yengil edi. Oldingi og'irlilik va hozirgi yengillikning sababi nima?

Ruhning og'irligi shuncha bo'larmikin? Buni hali ham tushunmayman.

### **BIR-BIRIMIZNI «ADASH» DERDIK...**

#### **Tursunboy ADASHBOEV** **Taniqli bolalar shoiri**

1964 yilning yozi. Men sirtdan o'qiganim uchun yozgi sessiya imtihonlarini topshirib, uyga qaytish uchun temir yo'l vokzalining kassasidan Toshkent-Andijon poezdiga chipta sotib olgach, do'stim Safar Barnoevni topib Labzak ko'chasining bosh qismidagi do'nglikda joylashgan kafeda gurunglashib o'tirsak adashim Tursunboy – Rauf Parfi kelib qoldi. Davra qizidi, uchta talaba ko'ngildagi chigillarni yozdik. Falsafa tarixidan dars beruvchi ustozimiz Abdulla Ayupovni esladik. Men bugun o'sha qattiqqo'l ustozning sinovidan o'tganimni aytib, ikkita "Soyaki"ga eridim. Kechki soat otilarda uzr so'radim.

– Adash, men ham Yangiyo'lga ketaman, sizga hamroh bo'lmoqchiman, – deb qoldi Parfiy.

Safar bilan xayr-xo'shlashib, bir navi poezdga tirmashdik. Cho'ntakda shamol o'ynasa ham biz o'rinni olgan kupeda gurung rosa qizidi. Safardoshlarimizning ko'pchiligi yoshlar bo'lgani uchun o'sha kezlarda juda ommalashib ketgan, Dadaxon Hasanov ijrosidagi "Laylo" qo'shig'iga ko'pchilik jo'r bo'lishardi. She'r muallifi ro'paramda jilmayib o'tirardi. Adashim o'zini tashviqot qilishni uncha xush ko'rmasdi. Men hayajonimni bosolmay kупедагиларга sirni oshkora qildim-u, baloga qoldim. O'zimiz qatori yigitlar dasturxonni qaytadan yangilashdi. Atrofimizdagilar Raufdan qo'shiq qanday sharoitda yaratilganligini bilib olishdi. Suhbatga andarmon bo'lib qaerga kelganligimizni ham bilmasdik. Bir mahal pravodnik xonalarga bosh suqib:

- Marg'ilonga tushadigan o'rtoqlar, tayyorlaninglar, – desa bo'ladimi. Rauf shoshib:
  - Adash, Yangiyo'l, – dedi xijolat tortganday.
  - Yaxshi bo'ldi, bir yo'la O'shni tomosha qilib qaytasiz. Bunga "Laylo" aybdor.
  - Buyog'i qiziq bo'ldi-ku!..
  - O'shda ham "Laylo"ning valine'matlari ko'p.
- Andijondan avtobusga o'tirib O'shga yetib keldik.

Vallomat do'stlarim ko'pligi uchun ko'nglim to'q edi. Yangi hovlida bir navi yashayotgan bo'lishimizga qaramay, turmush o'rtog'im Salomatxon dasturxonni badastur qildi.

Oqshom Adashdan yashirinchadabiyotimizning fidoyilaridan biri ustoz Saidahmad Xolto'raev bilan mashhur olimimiz Habib Abdullaevning sinfdoshi Inomjon aka Saidovga qo'ng'iroq qilib, mehmon bilan uchrashuv qilsak degan taklifni aytdim. Shanba kuni ertalab Rauf bilan Sulaymon tog'iga chiqib hazrat Mirzo Bobur qurdirgan hujrani ziyorat etdik. Metar oqsoqol qur'on tilovat qildi. Soat o'n birlarda Izzat Sulton, Habib Abdullaev va Yoqubjon Shukurovlar ta'lim olgan mакtabga kirib bordik. Jamoat jam, faqat adashim hayron, zimdan kaminaga qarab qo'ydi. Men odatdagiday "xotirjam bo'l" degan ma'noda ishora qildim. O'zbek tili va adabiyoti o'qituvchisi, ustoz Saidahmad aka Xolto'raev mакtab jamoasiga, shoir Rauf Parfi haqida ma'lumot berib, uning "Sharq yulduzi" jurnalida bosilgan she'rlaridan namunalar o'qidi. Yosh va iqtidorli xonanda Rasuljon Urayimjonov "Laylo"ni qoyillatib ijro etdi. Adashim biroz xijolat tortganday bo'ldi. Iltimoslarga binoan yangi she'rlaridan o'qidi va bir talay savollarga javob qaytardi. So'ngra, viloyat matlubot boshqarmasi qoshidagi kitob savdosining boshlig'i, Inomjon aka Saidovning xonadonida mehmon bo'ldik. Inomjon aka sinfdoshi Habib Abdullaev to'g'risidagi xotiralaridan so'zlab, buyuk olimning so'nggi kunlari haqida yozilgan va O'zbekiston Fanlar Akademiyasining nashriyoti tomonidan bosilgan kitobdan ikki donani bizga sovg'a qildi.

Yakshanba kuni ertalab, Shohidtepa masjidining imom xatibi, ustoz Habibiyning qadrondi, shoir Mahjuriy domlaning uyida bo'ldik. U kishi shoir Cho'lpon bilan o'ngda uchrashib, suhbatlashgani haqida va 1945 yilda Alisher Navoiy yubileyi komissiyasining a'zosi sifatida qilgan ishlari to'g'risida so'zlab berdi. Iltimosimizga ko'ra yangi g'azallaridan namunalar o'qidi. Dushanba va seshanba kunlari adabiyotimiz muxlislari Narimon matlubot jamiyatining boshlig'i Buvajon Muhammadjonov, Novqat tumanidagi Frunze nomli kolxozi raisi Buvanazar Shonazarovlarning iltimoslariga ko'ra birga dam oldik. Seshanba kuni kechki payt shoir do'stimiz Cho'lpon Ergashning ukasi Saydullo bilan adashimni Asaka orqali poezdda kuzatdik.

\* \* \*

1976 yilning bahori seryog'in keldi. Adirlar yashil tusga kirib, lolaqizg'aldoqlar bodrab ochildi. Shunday fayzli kunlarning birida uyimizga Shavkat Rahmon telefon qilib: – Aka, mehmonlar bilan kelganman, sizni yo'qlashyapti, iloji bo'lsa, Qarimshoq Toshboevni ham topib keling, – deb qoldi.

Qirg'iz adabiyotining peshqadam shoirlaridan biri, sirdosh do'stim, Shavkatning tarjimoni Qarimshoqning xonadoniga qo'ng'iroq qildim. Turmush o'rtog'i Gulumxon bizni telefon bilan bog'ladi. U uzoq safardan qaytgan bo'lishiga qaramay, masalaning mohiyatiga tushundi. Qarimshoq bilan kelishilgan joyda uchrashib, Shavkatning ota joyiga – Qirariq dahasidagi xonadoniga kirib bordik. Chorpoyada o'tirgan mehmonlar bilan so'rashib, dasturxonga duo o'qilgach, toshkentlik mehmonlarni Qarimshoqqa tanishtirdim. Ular Ibrohim G'afurov, Miraziz A'zam va adashim Rauf Parfilar edi. O'sha kuni yarim tunga qadar suhbatlashib, hayrashdik.

Ertasiga Qorasuvdag'i qadrondan ukalarimdan biri, taniqli arabshunos, tarjimon Alouddin Mansurning mehmoni bo'ldik. Ertasiga O'zgan shahriga qarab yo'l oldik. Mehmonlarni shahar qurilish boshqarmasining boshlig'i nazmi ta'b inson, chin ma'nodagi kitob muxlisi Odilpolvon Rayimjonov kutayotgandi. Tanish darvozaning qo'sh qanoti ochilib Odil aka bizni yorug' yuz bilan kutib oldi. Fotihadan so'ng, qo'chqor so'yishga izn berildi. Qarimshoq

ikkovimiz yo'l-yo'lakay, toshkentliklarga Odil akaning kutubxonasi to'g'risida shipshitib qo'yanimiz bois, dastuxon yozilgunga qadar to'rt tomoni turli tillardagi noyob kitoblar bilan to'lgan xonani tomosha qildik. Mezbon kitob savdosining boshlig'i ustoz Inomjon Saidovning nomini tilga olganida Rauf boshini qimirlatib, "Habib Abdullaevning sinfdoshi" deb eslatib qo'ydi. Tamaddidan keyin shaharni, qadimiylarini obidalarini tomosha qildik. Oqshom Odil akaning xonardonida she'rxonlik davom etdi.

Safarimizning uchinchi kuni Qorag'ulja tumaniga shoir Qarimshoq Toshboevning ona qishlog'i Loytalasga qarab yo'lga tushdik. O'zgandan Loytalaga qadar yo'lning ikki tarafi chamday gullagan. Ikki sohilga kimdir olov yoqib yuborganday qizg'aldoqlar yal-yal toblanardi. Bu manzara o'z navbatida mehmonlarning kayfiyatini ko'tardi. Qarimshoqning yaqin qarindoshi Sharifboy akaning xonadoni shundoqqina katta yo'lning yoqasida ekan. Kattakon hovliga temir tulporlarimizni kiritdik. Miraziz aka "Jiguli"ni ko'cha tarafga, derazaning ostiga qo'yishni lozim ko'rди. Sharifboy akaning qiyin-qistovi ham ish bermadi. O'z navbatida men ham "Bu joy yo'lning yoqasi, bilib bo'lmaydi" deb ogohlantirdim, aka ko'nmadidi. Fotihadan keyin qo'y so'yildi. Qimiz mavsumiga ertaroq bo'lgani bois Sharifboy aka tariqdan tayyorlangan bo'za keltirdi. Adashim menga zimdan qaradi. Bosh irg'adim. Asta-sekin qovurma bilan qo'sha tashkiliy tadbirlar izga tushdi. Mehmonlaring ta'bidan kelib chiqib, mezbon tubi tosh boylab ketgan qumg'onga bir litrcha bo'zadan quyib, "ertasiga ertalab ochamiz" deb biz yotadigan xonaning derazasiga qo'yib, xayrli tun tiladi. Nonushta oldidan ikkita voqeuning guvohi bo'ldik. Birinchisi Miraziz akaning "Jiguli"sidagi yon oynani loytolalik abjirlar shimo qilibdi... Sharifboy aka behudaga ogohlantirmagan ekan. Rosa kulishdik. Ikkinchisi Qarimshoq qumg'ondag'i bo'zani tog'oraga ag'dargan chog'ida qizg'ish tusdagi suyuqlik qora bo'tanaga aylanib erigan toshlari bilan tusha boshladi. Qumg'onning osti yaraqlab, yengil bo'lib qolgandi. Bu o'ziga xos sinovdan barchamizga qaraganda Rauf Parfi ko'proq ta'sirlandi. Demak, xalq tabobatida bo'yrakdag'i toshlarni tushirishda tariqdan tayyorlangan bo'zadan foydalanishgan ekanda...

Ertalabki nonushtani tog'lar bag'rida, tabiat qo'ynida qilishni lozim topdik. Zarur narsalarni Sharifboy akaning mashinasiga yuklab, Torim daryosining qirg'og'iga qirg'og'ida kigiz va shirdamollarni yozdik. Suhbat qizidi, mushoira boshlandi. Miraziz aka ham, Rauf va Shavkat ham o'zlarining dardli she'rlaridan o'qishdi. Qarimshoq qirg'iz xalq termalarini yod aytib, davraga fayz kiritdi. Tushdan nari Qarimshoqning og'aynisi Payzi Ismoilovning xonardonida qo'noq bo'ldik. Gurung tongga qadar davom etdi. Ertasiga Odilpolvon Rayimjonov bilan birgalikda mehmonlarni Qorasuv tumani orqali Toshkentga kuzatib qo'ydi.

Adashim bilan vafotidan to'rt oycha avval Mahmud mo'yloving oshxonasi o'rniga qurilgan gummaxonada uchrashgandik. Do'stim Safar Barnoevdan hamshaharim Cho'lpon Ergashning manzilini so'rasam:

– Xonanishin yurtdoshingni adresini faqat Rauf biladi, – dedi-yu kulib yubordi.

Men hayron bo'lib, – nima gap, – deb Safarga yuzlandim.  
– Ana Raufning o'zi kelayapti, Xizmni yo'qlasak ham bo'larkan, – deya javob qaytardi Barnoev.

Hol-ahvol so'rashgach, Raufga Cho'lponning ukasi Saydullo ikkita o'g'lini uylayapti, taklifnomani shoirga yetkazishim zarurligini aytdim. Adashim, Safar va men taksiga o'tirib G'afur G'ulom bog'iga qarab ketdik. Adashimning iltimosi bilan mashinaga ruxsat berdik. U yo'lning o'ng tarafidagi besh qavatli binoni ko'rsatib, shoir to'rtinchi qavatda turajagini aytdi. Va'daga binoan Safar ikkovi meni bekatda kutadigan bo'lishdi. Mashrab Boboev bilan Rauf Parfi barchamizdan ko'ra, Cho'lponning fe'lini vaxshiroq bilishardi. Shuning uchun ham

Rauf uning domiga meni boshlab bormadi. Nihoyat hamshahrimni xonadonidan topib, ukasining iltimosini o'z vaqtida bajarganim uchun ko'nglim yorishdi. Izimga qaytgach, yo'l-yo'lakay uchchovimiz tamaddi qildik. Asli ismi Tursunboy bo'lgan adashim, zamonamizning ulkan shoiri Rauf Parfi bilan oxirgi uchrashuvim shunday kechgan edi.

## **ISTAGANIDAY YASHASH BAXTI**

**Qozoqboy YO'L DOSH  
Pedagogika fanlari doktori**

Umrimning katta qismi boshkentdan uzoqroqdagi qishloqda kechgani uchun ko'pchilik ijodkorlarning asarlari bilan oldin, o'zлari bilan keyin tanishganman. Rauf Parfi bilan esa aksincha bo'lган. Adashmasam, 1984 yilning kech kuzi yoki erta ko'klami edi. Ustozim professor Akram Kattabekov qiz chiqardi. Guliston shahrida bo'lган bu to'yga biz G'affor Abdurahimov bilan bordik. Toshkentdan ham ko'p mehmonlar kelishgan bo'lib, ularning asosiy qismi Zohir A'lam, Safar Baroev, Ortiqboy Abdullaev, Baxtiyor Nazarov va yana men otlarini bilmaydigan olimu yozuvchilardan iborat ekan.

O'sha vaqtlar men "Krasnaya zarya" (nomni qarang?) deb atalgan kolxozda partkom kotibi bo'lib ishlayman, G'affor aka esa shu kolxozi raisi. Usta tashkilotchi, ekinchilik bobida tengsiz bilimga ega bo'lган rais bobo toshkentlik mehmonlarning deyarli hammasi bilan tanish ekan. Shu yerda ma'lum bo'ldiki, G'affor aka mehmonlarning aksariyati bilan birga, ayrimlari bilan oldinma-keyin o'qigan jurnalist ekan.

Qo'noqlar orasidagi o'siq oq sochlari yelkasiga tushgan, tortinib, o'zini qanday tutishni bilmay, begonasirab turganga o'xhash chog'roq gavdali bejirim qoracha kishi e'tiborimni tortdi. Gurung asnosida u kishining shoir Rauf Parfi ekani ma'lum bo'ldi. Rauf Parfi, garchi, ijodkorlar davrasida juda mashhur bo'lsa ham, oddiy o'qirmanlar o'rtasida deyarli tanilmagan edi. Men ham, kasbim filolog bo'lishiga qaramay, o'shanday adabiy iste'molchilardan biri sifatida Rauf Parfi she'rлarini yoqtirmasdim. Shoirning bitganlari menga atay qilingan injiqlikka o'xshab tuyulardi. Biz she'rning ham protokol yoki qarorlar kabi birma'noli va tushunarli bo'lishiga o'rgangan edik. Bizning badiiy didim jo'n bo'lib, nozik ishora va ingichka kechimlar aks etgan bitiklarni payqash va ulardan ta'sirlanishga tayyor emasdi. Ko'pchilik qatori meni ham asosan siyosatga qilingan ishoralar qiziqtirardi. Ko'ngilning nozik tovlanishlari, kechinmalarning chigalligi, sezimlarning mubhamligi kabi jihatlar aks etgan bitiklar qimmatini anglay olmasdim, shekilli.

Biz yonma-yon o'tirib qoldik. Aytgancha, to'y hoziriday to'yxona yoki hovlida emas, domlaning uchinchi qavatdagи uylarida o'tdi. Shu to'y bahona shoir shaxsini bir qadar anglaganday bo'ldim. Yoki uni anglash sari bir necha qadam tashlandi, chamasi. Shu kundan e'tiboran, Rauf Parfi ancha yillar davomida menga eng kuchli ta'sir ko'rsata oladigan yaqin odamga aylandi.

Shoir shaxsiyatidagi joziba va o'ziga xoslik meni uning bitganlariga ham o'zgacha nazar bilan qarashga undadi. Rauf Parf she'rлarini izlab o'qiydigan, o'qiganlarimni tushunishga, men ko'nikmagan bu g'alati bitiklar zamiridagi ma'noni anglashga intiladigan bo'ldim. Shunda bildimki, badiiy asarni idrok etishda ilk taassurot hamisha ham to'g'ri bo'lavermas ekan.

Rauf Parfi she'rлarining o'ziga xosligi shaxsiyatining betakrorligi natijasi edi. Shoirning bitganlarini maza qilib o'qib bo'lmasdi. Ular bilan tanishish chinakam mehnat edi va shu zahmat asnosida anglab yetilgan fikr yoki tuyilgan tuyg'u o'qirmanga aslo unutilmaydigan bo'lib o'rnashib qolardi

Rauf Parfi bilan 1988 yildan e'tiboran tez-tez ko'rishib turadigan bo'ldik. Men bu vaqtga kelib Guliston universitetida ishlar va shoirni ishxonamizda o'tkaziladigan turli adabiy tadbirdarga chorlab turardim. 1988 yilning 21 martida "Boshlang'ich ta'l'm" fakulteti talabalari bilan Yilboshi ? Navro'z bayramini nishonlaydigan bo'ldik. Yig'inga Rauf Parfini qatnashtirish uchun Toshkentga dekan o'rinnbosari Mamatkarim aka (Alloh rahmat qilgan bo'lsin)ning yangi "Jiguli" sida keldik. Ustani (sirdaryoliklar Rauf Parfini shunday atashardi) uyushma atrofidagi qahvaxonalaridan biridan topganimizda yomg'ir tomchilayotgandi. Biz yo'lga tushguncha yomg'ir jalaga aylanib, chelaklab quya boshladi.

Yo'l-yo'lakay bir-ikki to'xtadik va shu asnoda ich-ichimizga qadar yomg'ir o'tib, kiyimlarimiz jiqqa ho'l bo'ldi. Bu holda talabalar oldiga chiqib bo'lmasdi. Shu bois biznikiga ? Guliston tumani markazi Dehqonobod qishlog'iga borib, kiyim almashtiradigan bo'ldik. Rauf Parfi mening o'ziga unchalik loyiq bo'l'magan kiyimlarimni kiyib, g'alati bir ko'rinishga kirdi. O'sha yillarda hamma, ayniqsa, talaba yoshlari o'tli haq so'zga tashna edi. Shoir qator otashin she'rlarini o'qidi. U she'rni juda sokin o'qir, lekin bu sokinlik zamirida doim isyon va norozilik bo'lardi. Kiyimlarining unchalik kelishmaganiga qaramay, R. Parfi she'rlari talabalarga kuchli ta'sir qildi.

1989 yilning 14 fevralida o'tgan yana bir uchrashuv esimdan chiqmaydi. Kursdoshim, hozirgi Sardoba tumanidagi 5- maktab o'qituvchisi Olliyor Omonov o'zi ishlayotgan maktabda Rauf Parfi bilan uchrashuv o'tkazadigan bo'lib, shoirni olib kelishni menga topshirdi. 14 fevral erta saharda Olliyor sovxozdan butun boshli bir avtobusni olib, biznikiga keldi. Katta bir ulovda ikkovlon Toshkentga jo'nadik.

Shoir oldindan kelishib qo'yilgan vaqtida kelishilgan joyga kelmadi. O'sha paytlar Usta Diloromxon bilan "G'uncha" kinoteatrining orqasidagi ko'pqavatli uylardan birida turardi. Qo'ng'iroq qilib aniqlasam, shoirga Diloromdan javob tegmay turgan ekan. Ustaning hech qanday qolipga tushmaydigan sayru sayyohatlaridan bezor bo'lgan Diloromxon ishga borish o'rniga turli-tuman yurishlarga vaqt sarflaydigan xo'jasiga ruxsat bermayotgan ekan. Uylariga borib, sirdaryoliklar nomidan elchilik qilishimga to'g'ri keldi. Uchrashuvning nihoyatda zarurligini, odamlar aytib qo'yilganini va yana ming xil boshqa sabablarni ro'kach qilib, oxiri Diloromni "yumshatdik". Shoirga javob tegdi. Eshikdan chiqib olgach shoir: "Yashasin ozodlik! Zolim xotin oldiga uch kunsiz kelish yo'q!"- deya qichqirdi. Uning bu g'uborsiz haziliga Dilorom ham, biz ham kuldik.

Yo'l-yo'lakay, Abdumajid degan shoir yigit, Alisher otli hofiz bola olindi va butun boshli katta bir avtobusda besh kishi cho'ldagi 5- mактабга keldik. Shoirlar she'r o'qishdi, hofiz qo'shiq kuyladi, men bugungi o'zbek adabiyoti va unda Rauf Parfi ijodining o'rni haqida gapirdim. Uchrashuv qizg'in o'tdi. O'quvchilar savollar berishdi. Nimagadir, savollarning ko'pi menga qaratildi. Uchrashuvdan so'ng dastxat yozdirishda ham o'quvchilar shoirga emas, mening oldimga kelaverishdi. Nega bunday qilayotganlarini sekin o'zlaridan so'rasam: "Rauf Parfi siz emasmi? Axir shoirni soqolli deb aytishgandi-ku?!"- deyishdi. O'sha vaqlarda men soqol qo'ygandim, Rauf aka esa onalarining qistovi bilan soqol-mo'ylovni oldirgan ekan. Bu hol o'quvchilarni chalg'itibdi.

Uchrashuv yaxshi-ku, lekin undan qaytish doim ham borishday bo'lavermaydi. Bu safar ham shunday bo'ldi. Kechgacha davom etgan uchrashuvdan so'ng ulov bo'l'maganidan Ollayornikida tunab qoldik. Ertasiga biznikiga kelib, ikki kun jo'ralar davrasida bo'ldik. To'rtinchi kun Rauf Parfiga "rahbarlik qilib", ya'ni shoirni Toshkentga yetadigan mablag' bilan ta'minlab, ishga ketdim. Ertasiga kimdandir eshitib qoldimki, Rauf aka hamon Gulistonda emish. Bu gapga ishonmay, ustozni kuzatib qo'yishi lozim bo'lgan shoir Rustam

Eminga qo'ng'iroq qilsam, Usta yo'lkiraning hammasini qandaydir bir tilanchiga bergani uchun ketolmay qolganini aytdi.

1993 yilda Rauf Parfi 50 yoshga to'lishi kerak edi. Biz sirdaryolik bir to'p muxlislar shoirning yubileyini o'tkazmoqchi bo'ldik. Universitetning o'sha vaqtagi rahbariyati negadir shoirning yubileyi bu dargohda o'tkazilishini xohlashmadi. Shu bois o'zim yashaydigan Guliston tumanida bo'lsa-da, shoirning yubiley tantanalarini o'tkazmoqchi bo'ldik. U mahallar tuman ta'lim bo'limini Yoqubjon Madaminov degan o'ta nazokatli oydin bir shaxs boshqarardi. Tuman hokimining o'rribbosari esa Saidmahmud Usmonov otlig' g'oyat o'qimishli, o'z gapiga egalik qiladigan kishi edi. Ularning madadi va bevosita ishtiroki bilan tuman markazidagi 1- maktab hamda 9- hunar-texnika bilim yurtida yubiley tadbirlari o'tkaziladigan bo'ldi.

Bilim yurtining Orol Miltiqboev otliq vallomat direktori yubileyga bog'liq barcha chiqimlarni bo'yniga olib, shoir Rustam Eminni Rauf Parfi va sheriklarini olib kelishga jo'natdi. Bizning shoir bilan kelishuvimizga ko'ra Toshkentdan o'n bir odam kelishi kerak edi. Ehtimol, shoirning tashkiliy beparvoligi yoxud kamtarligi sababdir yubiley tadbirlariga Toshkentdan Naim Karimov, Botirxon Akramov va o'zingga kelishdi. Shoir ijodini g'oyat puxta biladigan va nozik tushunadigan bu ikki olim, albatta, ko'plarning o'rnini bosa olardi. Ularni nomlari yuqorida tilga olingan tuman kattalari bilan birga kutib oldik. U paytlar odamlarda mashina kam, borlarining bir qismi esa egalarining yonilg'i olish imkoniyati yo'qligi sababli yurmasdi. Shuni hisobga olib tadbirlar salobatliroq o'tishi uchun "Volga"si bilan xizmatga chaqirilgan oqqa'rg'onlik Sobir jiyan ham yetib kelgandi. Toshkentlik mehmonlarning shu mashinada yurishlari ko'zda tutilgan edi.

Yubiley tadbirlarining birinchi kuni kechga sirdaryolik jo'shqin inson va nozikta'b adabiyot muhibi, g'azalnavis Xayrulla Sulaymonning qishlog'ida bir uchrashuv belgilangan edi. Yoshi kattaroq kishilar yaxshi eslashadi, o'sha yillar xalq ancha moddiy qiyinchilikda hayot kechirardi. Buning aytayotganimning sababi uchrashuv o'tishi mo'ljallangan klub yonida do'kon ham bor ekan. Va boshqa vaqt quriganday o'sha kun, o'sha paytda do'konga un keltirilgan ekan. Ehtimol, bu bir tasodifdir. Balki, qaysidir bir "hushyor" sho'ro amaldorining klubga odam yig'ilmasligi uchun qilgan hiylasidir. Ochiq aytish kerak: u yillarda un juda taqchil edi. Odamlar xuddi urush davrlarida bo'lgani kabi boshoq terishga majbur bo'lib qolishgandi.

Xullas, aytilgan paytga Toshkentdan N. Karimov, B. Akramov, R. Parfi, Gulistonidan A. Quljonov, A. Kattabekov, U. O'ljaboev, B. To'ychiboev singari adabiyotshunos olimlar, biz bir o'n choqli mezbonlar bordik. Klubda Xayrullaning kichik o'g'li Chingizning to'rt-besh o'smir jo'ralaridan boshqa hech kim yo'q. Uchrashuv o'tkazadiganlar uchrashadiganlardan ancha ko'pmiz. "Qo'qoni" qishloqning erkagu ayol butun aholisi biror qop unga ega bo'lish uchun do'kon atrofida borayotgan hayot-mamot "jang"ida. Bu yoqimsiz holatni batafsil tasvirlayotganimning sababi shundaki, masala "non yo she'r" tarzida qo'yiladigan bo'lsa, u kamdan-kam hollardagina keyingisining foydasiga hal bo'lishini aytish va shoirlarga hech qachon oson bo'lmasligini ta'kidlashdan iborat edi.

Oradan bir-bir yarim soatlar o'tib, birovga yetib, birovga yetmay, un ham tugadi. Klub odamga to'lib ketdi. Kelgan olimlarning hammasi so'zga chiqishdi, shoir to'rt-besh she'rini o'qib berdi. Shu o'rinda aytishim kerakki, Rauf aka deyarli hech qachon o'z she'rlarini yoddan o'qimasdi. Chamasi, she'rlarini yoddan o'qish unga nokamtarlikday, o'z she'rlariga mahliyolikday tuyulardi. Lekin doim ham uning bosinqi ovozda bir maromda she'r o'qishi tinglovchilarni rom etardi. Uchrashuv davomida shoirga ancha savollar tushdi. Rauf Parfi

ularga o'ziga xos kinoyali yumor bilan javob berdi. Javob asnosida, o'zi aytmoqchi, bir necha marta "xol qo'ydi".

Ertasiga 15 aprel kuni tushgacha 1- maktabda, tushdan so'ng 9- bilim yurtida uchrashuv bo'lib o'tdi. Garchi uchrashuv tuman miqyosida o'tkazilgan bo'lsada, amalda viloyat darajasida bo'ldi. Negaki, Rauf Parfi nomini eshitgan muxlislar viloyatning eng olis burchaklaridan ham kelishgandi. Guliston DUNing filolog talabalari-ku deyarli yoppasiga shu yerda bo'lishdi. Uch yuz kishilik zalga odam sig'may ketdi. Ko'pchilik butun tadbirni tik oyoqda o'tkazgan bo'lishiga qaramay, hech kim hech kimdan yozg'irmadi. Yubiley munosabati bilan shoirning yaxshi ko'rgan inisi, talantli rassom Ilhom Usmonning rasmlari ko'rgazmasi o'tkazildi. Tadbirdan so'ng Sirdaryo bo'yiga chiqildi. Tinimsiz yog'ib turgan ko'klam yomg'iri ostida ulug' daryoning mavjlanib oqishiga mos tarzda she'rxonlik qilindi. Lekin she'rni ko'proq mezbonlar o'qishdi.

Yubiley tadbirida hokim o'rribbosari Saidmahmud Usmonov qatnashib, shoirga to'n kiydirdi. Yoqubjon aka tadbirning boshidan oxirigacha yonimizda bo'ldi. Shularga qarab, lavozimdlarning ham har xili bo'lishini, ularning orasida odamshavandalari ham borligini ilk bor ko'nglimdan o'tkazganman. Shunday qilib, rasmiy tantanayu yig'inlarga beparvo, har qanday maqtovga o'ziga xos kinoya bilan tepadan qaraydigan shoir Rauf Parfinning bir tuman doirasida o'tkazilgan yubileyi qatnashganlarning ko'ngliga yorug' nur olib kirgan edi.

Rauf aka she'rleridan ham ko'ra betakror shaxsiyati bilan chinakam xalq shoiri edi. U tom ma'noda xalq bilan va xalqning ichida edi. Deyarli barcha odamlar uchun Vatan o'z uyining bo'sag'asidan boshlansa, uyi, shu sabab bo'sag'asi ham bo'limgan Rauf Parfi uchun Vatan to'g'ridan to'g'ri ko'ngildan boshlanardi. Shu bois shoirni ko'pchilik qattiq yaxshi ko'rardи. Vaqtini aniq aytolmayman, lekin 90- yillarning boshida edi. Yosh shoir To'ra Mirzo Yozuvchilar uyushmasi qoshidagi Targ'ibot markaziga boshliq edi. U intizomga bo'ysunishni istamagani tufayli deyarli doim ishsiz yuradigan Rauf Parfini markazning Bosh muharriri lavozimiga tayinlagan edi. R. Parfi faqat bir shartga amal qilishi, ya'ni ishga bormasligi(!) kerak edi. Negaki, shoir ishga borguday bo'lsa, orqasidan ergashib yuradigan muxlislari ishxonani ham maishatxonaga aylantirib yuborishlari mumkin edi. Bu esa, tabiiyki, boshqalarga, ayniqsa, kattalarga yoqmasdi.

Kunlarning birida ertalab bir necha sirdaryolik yig'ilishib, Ustaning ziyoratiga keldik. Bu chog'lar u kishi Beruniy metrosi atrofidagi kimningdir uyida yolg'iz yashardi. Bizning o'zimizga yarasha tayyorgarligimiz bor edi, albatta. Ziyofat, R. Parfi ta'biri bilan aytganda, "kurash" uzoq davom etdi. Va doimgiday biz olib kelgan "qurol"lar tugab qoldi. Chunki Ustaning atrofida hisobda bo'limgan, ko'zda tutilmaydigan odamlar hamisha juda ko'p bo'lardi. Hamon tushunolmayman: ular shoirni ta'minlarmidi yoxud aksincha?! Xullas, bir vaqt Usta telefonni olib Yozuvchilar uyushmasidagi boshlig'iga qo'ng'iroq qildi: — To'rajon, bu yerda xalq och o'tiribdi va u o'zining haqini talab qilyapti! Oylik uch kun oldin berilishi kerak edi!

Simning naryog'ida nima deyilganini bilmayman. Chamasi, hozir bankda pul yo'q. Sabr qilib tursangiz erta-indin oyligingizni berdirib yuboraman deyilgan bo'lsa kerak. — Bunaqasi ketmaydi, To'rabe! YO bugunoq oylikni jo'natasiz yoki men hoziroq ishga boraman,- deb po'pisa qildi shoir.

Boshlig'i pulni jo'nataman deb va'da qildi, shekilli, shoir tinchlanib, bazmni davom ettirdi. Biz turib ketdik, shu bois oxiri nima bo'lganini bilmayman. Lekin mana shu kichik lavha Rauf Parfinning muxlislari orasida obro'si qanchalik kattaligini, uning injiqqliklari yaqinlari

tomonidan hech bir malolsiz qabul qilinishini ko'rsatadi. Xalq o'z shoirining erkligini shunday qilib ko'tarardi.

Bozor munosabatlari jamiyat hayotigagina emas, balki odamlarning ko'ngil olamiga ham kirib borgan sharoitda yurak xohishlariga muvofiq yashashga uringan kishining tirikchiligi qiyin kechishi tabiiy. Tonig'mizki, Rauf Parfi moddiy ma'noda anchagini yupun yashadi. Unda egalik qilinadigan hech qanday mulk, javobgarlik talab etiladigan biror lavozim bo'lindi. Ma'lumki, egalik mas'ullikni talab etadi. Har qanday mas'uliyat esa qaysidir ma'noda shaxsga o'tkazilgan zug'umdir. Rauf Parfi zug'umga chidashni istamasdi. Shu bois u o'z erkidan iborat mulkka egalik qilish bilangina qanoatlana bildi. Shu sabab hech qanday majburiyatni bo'yniga olmay, mas'uliyat va cheklovlardan hisoblashmay, ko'ngli istaganiday yashashning uddasidan chiqdi. Bu esa shaxsning baxtiyorligi belgisidir.

2012 yil 23 noyabr-2013 yil 2 yanvar

**SABR DARAXTI**  
**Yo'ldosh SOLIJONOV**  
**Filologiya fanlari doktori**

Yo'q, bu nom bilan men Rauf Parfining 1986 yilda nashr qilingan "Sabr daraxti" kitobini esga olayotganim yo'q va uni tahlil qilmoqchi ham emasman. Sababi, Rauf Parfi deganda mening ko'z o'ngimda har doim davrning dovulu shamollariga matonat bilan bardosh berib, chayir tanasidagi qonli yaralarini yashirib yashayotgan, quyoshga intilib shoxlari tarvaqaylab ketgan ulkan sabr daraxti gavdalanishidadir. Aslida bu kitobda ham, boshqa to'plamlarida ham shu nomda she'r uchramaydi. Yolg'on bo'lmasin, ushbu kitobning oxirgi bo'limi "Sabr daraxti" (1982) deb atalgan. Rauf uchun sabr daraxti bu "qutlug' Turkiston" edi. Shoir nazarida Ona Turkiston ko'p asrlar davomida turli bosqinchilarga qarshi mardona kurashib, goh ularning iflos oyog'i ostida xazondek ezilib ingragan, goh qaddini ko'tarib, ozodlikning "Naqadar uzun" va og'ir yo'lidan yurib sabr-toqat bilan erkinlikni kutayotgan daraxt edi. Shoir butun ijodi mobaynida o'zining "Do'stim, dilda ne bor so'zlayman senga" degan satrlariga amal qilib yashadi va rost so'zini aytib ketdi.

Rauf Parfi asli vodillik bo'lgani uchun Farg'onaga ko'p kelardi. U hamma bilan do'stlashar, kirishib keta olardi. U kelganida Farg'onada, men borganimda Toshkentda uchrashib turardik. Raufning biron joyda mondali ishlaganini eslolmayman. Sho'ro davrida ishlamay yurish mumkin bo'limgani uchun nomigagina biron nashriyot ro'yxatidan o'tib qo'yardi-yu, o'zi ko'pincha yo do'stlari bilan ulfatchilikka yoki qishloqlarga chiqib ketardi. Qachon "Qaerdan topamiz Sizni" deb so'rasak, har doim "O'sha ishxonamdan" derdi. Bilganlar uning "ishxonasi" sobiq inqilob (hozirgi Amir Temur) xiyobonidagi pivaxona ekanligini eslashsa kerak (bu yerlar buzilib ketgandan keyin uning "ishxona"si Navoiy ko'chasi 30-uy yonidagi oshxonaga ko'chdi).

Shukurki, Raufning bunday qiliqlarini to'g'ri tushunadigan, uni ehtiyyot qiladigan ustozlari, do'stlari ko'p edi. Masalan, men uning nashriyotda ishlagan paytlarida rahbarlik qilgan ulkan shoir va adib Hamid G'ulomdan minnatdor bo'lib "Hamid aka ulug' inson. Meni chaqirib, kelsang—kelmasang, do'ppingni stolga qo'yib qo'y. Ehtiyyot bo'l, ko'p ichma, ko'proq yozgin derdi" degan gapini ko'p eslayman.

Rauf erkinlikni juda yaxshi ko'rardi. Bir gal kelganida men uni o'zimning bir xonalik ish kabinetimga olib bordim-da, "Mana shu xona Sizga, Raufjon. Xohlagancha turaverasiz" dedim. Xonaga kirib, atrofga qaradi, kitoblarimni, ish stolini ko'rди-da, quvonib ketdi: "Shu xona mengami do'stim? Rostdanmi? Oh ozodlik bormisan!" dedi ao'llarini ikki vong'a

ko'tarib. Bu yerda u bir haftadan ortiq yashadi. Raufjonning birovga og'iri tushmasdi. Juda kam ovqatlanar, unga bir shisha arog'-u, uch-to'rt burda qotgan non – yetarli edi. Ortiqcha hashamlarga, hadeb mulozamat qilaverishga yo'l qo'ymasdi. Shuning uchun uni ko'p bezovta qilavermasdim, ishdan kelib bir xabar olardim-da, kechki payt ovqatlanishga taklif qilardim xolos.

Yangi asr boshlarida Toshkentga borganimda uni izlab nashriyotga kirdim. Ko'pchilikdan so'radim, uning qaerdaligini hech kim bilmaydi. Oxiri shoira Farida Afro'z orqamdan chiqib, "Hech kimga aytmagin devdilar, siz atay Farg'onadan kelibsiz. Keyin eshitsalar hafa bo'ladilar. Ustoz Do'rmonda" dedi. Xursand bo'lib, Do'rmon ijod uyiga yo'l oldim. Ikkinch qavatda yashayotgan ekan. Eshikni taqillatsam, ichkaridan "Kim u, yaxshi odam bo'lsangiz, kiravering. Eshik ochiq" degan ovoz keldi. Men ham hazillashib: "Bu men, pochtal'on Pechkin. Sizga telegramma bor!" deya eshikni ochdim. Ko'riboq o'rnidan turib ketdi va quchog'ini katta ochib, "O, do'stim, bormisiz? Shu yerga ham topib keldingizmi?" deb xursand bo'ldi.

Xonadagi ish stoli turli qog'ozlar bilan to'la, bir chetida yozuv mashinkasi. Kichkina tumbochka ustida esa yarimlagan shisha, uch-to'rt burda non. Rauf darhol shishani qo'lga oldi. Uning niyatini tushundim-da, "To'xtang, shoir! Hali erta, oz-moz gaplashaylik. Keyin..." dedim. Biroz suhbatlashib o'tirdik. Aytishicha, bir necha kundan beri shu yerda yashab, "Saylanma"ni nashrga tayyorlash ustida ishlayotgan ekan. "Hech ko'nglim to'lmayapti. Saylanmaga kiritadigan she'rlarim yo'q ekan!" desa bo'ladimi? Hayron qoldim va unga taskin bergen bo'ldim. U o'z ijodiga nisbatan talabchan shoir edi, o'zining yozganlaridan hecham qoniqmasdi. Ehtimol, shuning uchun ham tirikligida "Saylanma" kitobini tayyoramagandir?

Rauf Parfi bag'ri keng, hazilkash yigit bo'lib, har doim ham suhbatiga kulib, tabassum bilan muomala qilardi. Rauf qalamiga mansub she'rlarning ko'pi ijodkorlar taqdiriga bag'ishlangan. Chunki uning nazarida "Faqat shoir haqli baxtsiz bo'lmoqqa..." Rauf Parfi ham o'z baxtidan kechib xalqining baxtli bo'lishini istagan shoirlar toifasidan edi. Shuning uchun uning nomi xalq xotirasidan hech qachon o'chmaydi.

### **BETIMSOL RAUF PARFI** **Nurulloh OSTON** **O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi**

Yaxshi odamdan yaxshi xotira qoladi. Yaxshi shoirdan yaxshi she'r qoladi. Yaxshi shoir va yaxshi ustozdan she'r va mehr qoladi. Rauf Parfi ana shunday, yoshlarning she'ru shuuri, ijodkorlar g'ururi, darvishlar piri, xullas, bag'ri osmonday keng va musaffo ulug' shoir edi. Hamma ijodkorlar gulga talpingan asalariday unga talpinishardi, sababi, Rauf aka ularning yoshi katta-kichikligidan qat'iy nazar, hammaga bir xil, samimiy munosabatda bo'lardi.

Uning ijodida mushtaraklik, zuhurida injalik, injiqlik, nozik qochirim, hozirjavoblik, haqiqatni hazilga o'rab yetkazish xislatlari mujassam edi. Shu boisdan jiddiy odamlar, jiddiy shoirlar Rauf aka bilan duchlashib qolguday bo'lishsa, beixtiyor uning izmiga tushib, ta'siriga berilib, jiddiylikni ham unutib qo'yishardi.

-Dunyoqarashlar qanday? — deb qo'yardi Rauf aka birov bilan so'rashganida.

70-yillarning boshlarida she'riyat maydoniga otilib chiqqan yosh ijodkorlar Rauf akaning atrofiga jipslashgan edi. Goh yosh shoirlarning ijara uyida, goh Hadra «yarmarkasi»dagi

«Rauf akaning ishxonasi» deb nom olgan choyxonada har kuni ehtirosli she'rxonliklar, samimiy bahslashuvlar yarim tungacha davom etardi.

O'sha paytda «to'g'on boshida» bo'lган, ya'ni, gazeta-jurnal, nashriyotlarga rahbarlik qilayotgan «katta avlod» vakillari yosh shoirlarning she'rlarini deyarli chop qilishmasdi. Sababi, «katta avlod» vakillari ko'ngliga yosh avlod she'riyatidagi ohangdorlik, rangdorlik, shiddat va jozibadorlik sifatlari hech o'tirishmasdi. Ular yoshlар ham xuddi o'zlariday sho'ro mafkurasi nuqtai-nazaridan fikrlashlarini, o'zlariday «ijod» qilishlarini, ulardan «balandroq» yozmasliklarini istashardi. Lekin bu «istehkom»ni allaqachon Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Omon Matchon, Rauf Parfilar buzib o'tgan va o'zbek she'riyatidagi ana shu isyonkorlik tufayli zamon, davr, taraqqiyot yosh shoirlarga o'z so'zini aytish, o'z shijoatini, fikr va tasavvur cheksizligini namoyon qilish imkonini bergen edi.

Ular ichida Rauf Parfi juda hammabop, shoirparvar bo'lганligi uchun yosh shoirlar uning atrofida bo'lishga intilishardi. Chunki Rauf aka ularning har birini puf-puflab, avaylab, she'rlarini mehr bilan tinglab, yanada baland parvozlarga qanolantirardi. Ana shu tufayli Usmon Azim, Shavkat Rahmon, Xurshid Davron, Yo'ldosh Eshbek, Azim Suyun kabi shoirlar ijodi she'riyatni chegaralab qo'yadigan barcha to'siqlarni yengib, sindirib, o'z sehrini, go'zalligini, jozibasini bor bo'yicha namoyon qildi. Va bugungi she'riyat, hozirgi yoshlар ijodi, ularning yuksak .badiiy saviyasi, ranglar jilosi, beqiyos tasavvur og'ushidagi ohanglar aynan Rauf Parfi maktabining hosilasidir. Lekin asosiy gap bu ham emas. Asosiy gap – yangi avlod shoirlari sho'ro istibdodiga qarshi o'z so'zini aytishga o'rgandi, Vatan ozodligi haqida qo'rmasdan, hayiqmasdan yoza boshladi. Cho'lpon, Amin Umariy, Botu singari ulug'larimiz ijodida aks etgan dard, Vatanni ozod ko'rish orzusida yozilgan go'zal she'rlar yangi sifat bosqichi kasb etib, yangi davrning shijoatli shoirlari ijodida aks eta boshladi, Hurriyatning sarin sabolari ana shu davrda xalqni uyg'otdi.

Rauf aka bir kuni menga tanbeh berib qoldi.  
-Nurullo, nega she'rlaringizni to'liq qofiyalamaysiz? O'zim qofiyaga solib beraymi?-dedi.

Haqiqatdan ham menda har misra she'rning ikkinchi va to'rtinchi qatorlarini qofiyalash odat tusiga kirib qolgan edi. Chunki bunda fikr izchilligi oshadi va o'quvchining she'rni hazm qilishi osonlashadi, deb hisoblardim. Rauf akaning tanbehidan keyin she'rlarimni to'liq qofiyalaydigan bo'ldim, lekin hozir ham she'rning to'liq qofiyaga bo'ysundirilishi fikr izchilligini chegaralayotganday tuyuladi.

Respublika radiosida ishlayotgan kezlarimda birorta voqeiy sanaga bag'ishlab o'n besh kun oldin she'r yozib, «O'zbekiston madaniyati» (hozirgi «O'zbekiston adabiyoti va san'ati») gazetasiga olib borib berardim. U yerda bosh muharrir o'rnbosari bo'lib ishlayotgan Ibrohim G'afurov yoki Abduqahhor Ibrohimov she'rimni olib qolib, o'sha sana munosabati bilan gazetaning birinchi sahifasiga berib yuborardi. Ana shunday she'rlardan biri – Sho'ro davrida har yili aprel oyida bo'lib o'tadigan «qizil shanbalik»ka bag'ishlangan bo'lib, shu she'r gazetaning birinchi sahifasida chop qilindi. She'rning oxiri shunday yakunlanardi:

*Bizlar uchun yotdir o'rlik, tanballik,  
Har kuminiz bo'lsin qizil shanbalik!*

O'sha paytlarda Rauf aka TTZda istiqomat qilardi, biz shoir do'stim Ochil Tohir bilan ishdan keyin Rauf akaning uyiga o'tdik. Ustoznikida bir davra shoirlar o'tirishgan ekan, Rauf aka kelishimiz bilan darrov meni «nishon»ga oldi:

-Nurullo, «O'zbekiston madaniyati»da «qizil shanbalik» degan she'ringiz chiqibdimi? O'xshashlikni qarang, sizning shanbaligingiz ham qizil, mening ishtonim ham qizil, — deya qizg'ishrang ishtonini ko'z-ko'z qilib, hammani kuldirdi. Keyin menga jiddiy qarab: — Bunaqa she'rlarni yozmang. Qizil imperianing soxta o'yinlari bizning qadriyatlarimizga to'g'ri kelmaydi,-dedi.

Yana bir o'tirishda Rauf aka she'rlarimni o'qib turib:

-Nurullo, she'rlaringizga «Nurullo Doston» deb imzo qo'ysangiz, qanday bo'ladi?-deb qoldi.

-Bo'lmaydi,-dedim men hazillashib. — Otam ikkinchi jahon urushida Moskva ostonalarida jang qilgan, shundan «Ostankino» paydo bo'lgan, qolaversa, «Aston Villa» futbol komandasini ham otamning ismi bilan ataladi...

Oradan yillar o'tib, Rauf akaning yilida, ma'rakasidan keyin shoir do'stim Chorsham Ro'zievning xonardonida shoir Jamol Sirojiddin bilan o'tirganimizda Tursunali polvon mendan:

-Nurullo, nega siz she'rlaringizga imzo qo'yaningizda ismingizni to'liq yozmaysiz?-deb so'rab qoldi.-Sizning ismingiz «nuri Olloh», shuning uchun Nurullo deb yozishingiz kerak.

-Unda bir paytlar Rauf aka «she'rlaringga «Doston» deb imzo qo'y», degan edilar, bu yog'i qanday bo'ladi?-dedim.

-Rauf akadan keyin men uning qo'lini olganman. Qani omin! — hamma duoga qo'l ochdi. — Bugundan boshlab siz Nurullo Dostonsiz, Ollohu akbar!

Ana shunday qilib, men anchagacha «Nurullo Doston» bo'lib qoldim, bu ham Rauf aka menga taklif qilgan taxallusning muxtasar yakuni edi.

Biz Chorsham, Abdunabi Boyqo'ziev, G'ulom Fathiddin, Jamol Sirojiddin, Yahyo Tog'a Rauf Parfining ijoddan boshqa hech narsani tan olmaydigan va ustun qo'ymaydigan shogirdlari edik va shunga sodiq bo'lib qoldik.

Rauf Parfi ijodi birligina o'zbek badiiy adabiyotida emas, balki turkiy xalqlar badiiy adabiyotida alohida ijtimoiy hodisa, istibdodga isyon, turkiy xalqlar ozodligi uchun kurashga yo'g'rilgan adabiy jarayon va qolaversa, o'zbek she'riyatining yuksalishiga hissa qo'shgan bir maktab sifatida o'rganilsa va tadqiq qilinsa arziydi.

## RAUF PARFI YODI

*Urub turgan yurak zarbi,  
Behalovat shoir qalbi,  
Alifboning qutlug' harfi –  
Timsolidir Rauf Parfi.*

*Zamin-zamon ko'lkasida,  
So'z zalvori yelkasida,  
Turkiy olam o'lkasida  
Hilolidir Rauf Parfi.*

*So'zi shamshir kabi kesgan,  
Ko'ngli tog'lar kabi o'sgan,  
Hurriyatning sarin esgan  
Shamolidir Rauf Parfi.*

*She'riyatga payvasta til,  
Raiyatga vobasta dil,  
Ishq ahliga misli Bedil –  
Niholidir Rauf Parfi.*

*Yonar so'zi asl chaqmoq,  
Satrlari yashil yaproq,  
Qo'nalg'asi ona tuproq,  
Zilolidir Rauf Parfi.*

*Hayot bilan haqiqatning,  
Bayot bilan tariqatning,  
Shoyistayu g'ariqatning  
Visolidir Rauf Parfi.*

*Ahli ulus dalolati,  
Kalimai shahodati,  
Tiriklikning ibodati –  
Savolidir Rauf Parfi.*

## **LAFZIY SAN'AT USTASI**

**Ilhom AHROR**

**O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi**

Fahrim shuki, ustozi Rauf Parfi bilan juda ko'p suhbatlashish omadi nasib etgan. Armonim shundaki, nima uchun yanada unga intilmaganman. Yuksak badiiy to'lqin, insoniy dard egasi bo'lgan shoirni biror marta ruhi so'lg'in, rangi siniqqan, kimnidir o'ksitgan yoki qay bir insonning oldida nochor holda qolganini ko'rmanganman. Hamisha mardona yurardi. U qadami yetgan davraning guli bo'lardi. Zinhor ustozligini bildirish uchun shogirdlar suhbatini sog'ingani yo'q.

O'zbekiston mustakilligining dastlabki yillarda eski tuzumdan qolgan salbiy illatlarni yo'qotish yo'lida matbuotda erkin fikr uchun keng yo'l ochib berildi. O'zbekiston televideniesida u kishining musiqa san'atiga munosabati ifodalangan ko'rsatuv tayyorlash jarayonida shoirni yanada yaqindan bildim. Ko'rsatuvning umumiyligi ruhi uning «navoga aylangan so'zlar»i edi.

Rauf akaning televizorda ko'rsatuv yoki biror kino tomosha qilayotganini uni tushunmagan biror kimsa ko'rsa zerikib ketadi. U kanaldan-kanalga o'tishni kanda qilmas, biror ko'rsatuvni to'liq ko'rishingga imkon bermasdi. Bir kuni buning sababini so'radim.

– Ishonmaysiz, men kitobni ham shunday o'qiyan, – jilmaydi u, – Biror asar qo'llimga tushsa, sahifasining biror joyini bo'lib olib o'qiyan. O'sha joyiga qiziqsam, hammasini o'qib chiqishim mumkin. Yoki o'qigan sahifam xulosam bo'ladi.

Ya'ni, adib she'rmi, hikoyami, qissa yoki romanmi boshdan-oxir adabiyot va san'at talablariga javob berishi kerak, deb hisoblardi. Va uni har bir o'zini tanigan ijodkorda ko'rishni istardi.

Bir suhbatda Rauf aka «Jahon adabiyoti» jurnalidan bo'shaganini aytdi. Men bunga ajablandim:

– Siz dunyoviy shoirsiz. «Jahon adabiyoti»dan boshqa munosibroq yana qaerda ishlashingiz mumkin? Kuni bo'yи dunyo adabiyoti bilan tanishganingiz uchun qaysi matbuot sizga maosh to'laydi? Qolaversa, Ozod Sharofiddinovdek zabardast olim boshchiligidagi ijodkorlar jamoasi sizni e'zozlashadi. Bekor bo'shabsiz...

Ozod aka umrining oxirgi yillarida betobligiga qaramay yuksak adabiy salohiyatini namoyish qilganliklari bizga ma'lum. O'sha yili avtohalokat tufayli shoir Mirpo'lat Mirzo ham oyoqdan yengilgina jarohat olgandi. Rauf aka shularga nisbat berib, mening e'tirozimni kulgiga oldi. Davradoshlariga ishdan bo'shashi sababini shunday izohladi: – «Jahon adabiyoti» oyoqdan olayapti?!

Rauf aka hech qachon birovning ustidan kulmasdi. Har qanday kulfat zamirida kulgi, xushchaqchaqlik atrofida kulfat mavjud bo'lishi mumkinligini sho'xchan ifoda etarkan, ishdan bo'shaganligimning sababi shu jamoada nasibam qolmaganligi, degan gapni o'z tilida shoirona bayon etgandi.

Uning bunday so'zlash yo'siniga boshqa bir gurungda ham guvoh bo'lganman.

Rauf aka mohir tarjimon Amir Fayzulloni juda hurmat qilardi. Ular o'tirgan qahvaxona shunday yo'l bo'yida joylashgandi. Tushlikka ketayotib ko'zim tushdi. Kelib o'tirdim. Bir ozdan keyin ikki xonanda ham hozir bo'ldilar. Amir aka nimalarnidir salmoq bilan gapirar, Rauf aka esa odatdagiday uni jilmayibgina tinglar, ora-orada qimmatli gap tashlab qo'yardi. Amir aka gapirayotgan Robindranat Tagorning ijodiy mahorati menga qanchalik ta'sirla bo'lsa, Rauf aka oraga tashlagan fikrlarning har biri lafziy san'at namunasiday taassurot uyg'otardi.

Nogahon ikki xonandaning o'zaro hangomasi ikki ijodkorni suhbatdan to'xtatib qo'ydi:  
– Qarang, falonchi, yo'ldan qanday ofatijon o'tmoqda, – dedi xonandalarning biri.

– Bu dunyoda-ku ularni uzoqdan ko'rayapsiz, jannatda bundaylar bilan birga yashaysiz, – donolik qildi ikkinchisi Rauf aka bilan Amir akaning tan va ruh haqdagi suhbatiga o'zicha qo'shilgan bo'lib.

Davra uchga bo'lingandi. Ikki ijodkor, bir tinglovchi va boshqa bir dunyolarini namoyish qilayotgan ikki xonanda. Rauf aka ular tomon qayrilib, bunday dunyoqarash bilan qanday yashayapsizlar, degan gapni o'ziga xos yo'sinda bayon kildi:  
– Jannatda ko'p, deng! Boringlar, haqiqatan ham juda ko'p...

Xonandalar gapning mohiyatini anglashmadidi. Ehtimol, mavzuni hayotdan olib suhbatga qo'shildik, deya faxrlanishgandir ham. Balki, kinoyaning zamirida nima gap borligini sezishgandir. Bu – yolg'iz yaratganga ma'lum.

Rauf aka haqda ushbu bilganlarimni yozarkanman, qo'shni uyni ta'mirlayotgan ustanning devorni taqillatib ishlashi kayfiyatimni buzdi. Usta o'z ishini qilayapti, deb chidashga harakat qildim. Lekin xotiralarni bir nafasda tugatish ilinjida chiqib ustadan iltimos qildim:

– Bir soatcha taqillatmay, boshqa ish bilan shug'ullaning. Hayotda kamtarona yashab, she'riyatda yorug' iz qoldirgan Rauf Parfi haqidagi xotiralarni bugun nashriyotga yetkazishim kerak.

Yaxshi muomalamdan u ham menga o'zini yaqin oldi:  
– O'zingiz ham yozasizmi? Demoqchimanki, men falonchi shoir bilan yaqindan tanishman.

U yana bir atoqli ustozimiz haqda gapirayotgandi.

– Gap mening kimligim, sizning kimlar bilan oshnochililingiz haqida emas, ertalabki kayfiyat bilan Rauf Parfi haqdagi xotiralarni tugatmoqchi ekanligimni aytishga chiqqandim, xolos!

– Ishimni kechga yakin tugatishim kerak, – keskin javob berdi u, – uzr, hayotda har kimning o'z vazifasi bor.

Ortiq unga e'tiroz bildirolmadim. Men ham noiloj «o'z vazifamni» bajarishda davom etdim. Ruhimga xazinlik cho'kdi. Ammo Rauf akaning yodi madadga keldi. Ko'p ijodkor do'stlarimizaytib, kulib yuradigan bir voqeani eslab, ruhim ko'tarildi.

Bir kuni Rauf aka kutilmagan bir mehmon bilan tushlik qilishga oshxonaga kirgan. Ularga e'tibor haminqadarligidan, Rauf akaning hamrohi, nahotki bular sizdek shoirni tanishmasa, degan ma'noda gapirgan ekan, Rauf aka xizmatchi ayolga tegizib hamrohiga serviqor ovoz bilan debdi:

– Alisher G'iyosiddinovich doim bizni shu oshxonaga boringlar, mening hurmatimni qilib, sizlarga qarashadi, derdi. Maqtalgan xizmat shumi?

Xizmatchi ayol sarosimaga tushib, ularga qulay sharoit yaratibdi. Oshxonadan chiqib ketishayotib, hamrohi Rauf akadan so'rabdi:

– Alisher Giyosiddinovich, deganingiz kim o'zi? Hurmat boshqacha bo'ldi!  
– Alisher Navoiy xazratlari-da! Alisher Navoiyni bilmagan odam Rauf Parfini qaerdan bilsin!

Qo'shni uydan esa ta'mirchi ustanning dunyoqarashi eshitilib turardi: «Taq-taq, taq-taq!..»

## **KO'ZLARI CHAQNOQ SHOIR Muhammad G'AFFOR O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi**

### Tanishuv

80-yillar. Xadraning biqinidagi pivoxonaga kirdim. Bir krushka pivo olib jussasi kichkinagina sochlari tim qora (keyin bilsam bo'yalgan ekan) odam o'tirgan stolga kelib o'tirdim. U odam adabiyot ixlosmandi ekan shekilli suhbatimiz o'zidan-o'zi she'riyatga borib, taqaldi. Men Rauf Parfining bir she'rini o'qib berdim.

Xato qildim sevgilim,  
Xato qildim bilmasdan.  
Men suyib xato qildim,  
Men kuyib xato qildim,  
O'lib xato qilmasman.

“O'zbekning zo'r shoiri”, — dedim iftixor bilan. Haligi odam

“Rostdanmi?” dedi. Yana she’r o’qiy boshladim:

*Oy suzadi muzlagan kecha  
Qor ufurar.  
Tumanlarda bir yulduz muncha  
G’amgin turar.  
G’uj-g’uj yulduz...*

U odam hijolat tortganday “To’xtang-to’xtang, zo’r-zo’r” — dedi va kulib “Bu shoirni taniysizmi?” — deb so’radi. Men “Afsus-ki, tanimayman, qani tanisam edi, boshidan zar sochardim”, — dedim. U shunda qo’qqisdan “Men uni taniyman, tanishtirib qo’yaymi?” deb qolsa bo’ladimi?! Quvonganimdan osmonu falakka chiqib ketdim. Ichimlik va yegulik olib, Xadraning jin ko’chalarini oralab ketdik. Xazon bosgan bir hovliga yetganimizda u kishi meni to’xtatib, “Siz mana bu kursida o’tirib turing” deb o’zi ichkariga kirib ketdi. Oradan biroz vaqt o’tganidan keyin bo’yniga bo’yinbog’ taqqan holda chiqib, “Qarshingizda Rauf Parfi janoblari turibdi”, — desa bo’ladimi? Jahlim chiqqanidan musht tushirib yuboray dedim. “Ovozingni o’chir, aperiss!” — dedim baqirib. Keyin u kishi “Mana kitobim, rasmim ham bor, ko’ring, men o’sha shoir bo’laman” — dedi. Biz qayta boshdan quchoqlashib ko’rishdik. O’sha kuni yarim tungacha she’rxonlik avjiga chiqdi.

### **Ikki daho**

Bir to’da ijodkorlar rahmatlik Tilak Jo’raning Sog’bondagi katalakdek hovlisida yig’ilgan edik. Mehmonlar orasida bir so’zamol yozuvchi Abdulla Oripovning Mirtemir domлага bag’ishlangan she’rini o’qidi:

*Sizga tashlanmadi oh, ne-ne zotlar,  
Ular har mo’minga tashlanar edi.  
Tashlanmasa dili g’ashlanar edi,  
Ular puchak jonlar, ahli bedodlar.*

She’rni o’qib tugatgach, “O’zbekistonda bundan zo’r bag’ishlov she’r yo’q...” deb qoldi.

Men esa “Bor!” dedim, hamma menga yalt etib qaradi. Men Rauf akaning Mirtemir domлага bag’ishlangan, hali matbuotda e’lon qilinmagan “Turkiston yodi” she’rini o’qiy boshladim.

*Kecha sodiq o’g’ling  
O’tdi dunyodan.  
U shoir edi,  
U inson edi,  
Sanchilib yashaydi  
Doimo yodda...*

She’rni o’qib tamomlashib bilan davra yoppasiga meni olqishladi. So’zamol yozuvchiga bu alam qildi, shekilli, mehmondorchilik mushtlashuv bilan tugadi.

Tilak aka meni mehmonlardan ajratib olib chiqib kuzatmoqchi bo’lganida davradan bir kishi otilib chiqib, meni quchoqlab “Rahmat, ukajon, men ham siz bilan ketaman” deb turib oldi. Tor ko’chadan katta ko’chaga chiqdik. Haligi odam taksi to’xtatib, “Guliston” restoraniga” dedi. Tilak aka rahmatli, men ham sizlar bilan boraman deb mashinaga o’tirdi. Keyin hazillashib, mana Orifizm, mana Parfizm deb o’ziga xos usulda qah-qaha otib kului (chunki, xalq orasida shunday ibora yurardi). Restoranga yetib kelganimizda haligi odam ichimlik,

shashlik va gazak buyurdi. Qadahlar to’ldirilib qo’lga olindi menga esa yana bir necha marta rahmatlar yog’ildi keyin bilsam, bu odam Mirtemir domlaning o’g’illari Mirjalol Tursunov ekan.

### O’zbek she’riyatidagi eksperimentlar

Bir kuni shoir Berdi Rahmat ustoz ikkalamizni uyiga mehmondorchilikka taklif etib qoldi. Berdining bir-biridan sho’x o’g’illari bizlarga xalaqit berardi. Shunda Rauf aka chiroyli lutf qildi. “Kichkina dunyoning katta odamlari, bizga tinchlik bering”, dedi.

Adabiyot haqidagi suhbatimiz uzoq davom etdi. Men yoshlik qilibmi yoki tajribasizligim boismi, ustozga “Hamma narsaning teskarisini yozib, qolipga sig’maydigan so’zlarni ishlatasiz, bu noto’g’ri ekanligini o’zingiz ham bilasiz-ku”, — dedim. Ustoz xafa bo’ldi shekilli, ma’yus tortib, “ketaman”ga tushib qoldi. Berdi ikkalamiz uni kuzatgani chiqdik. Men Berdinikida qolmoqchi edim, taksi to’xtatdik, Berdiboy pulini ham to’ladi. Ustoz mashinaga o’tira turib “Muhammad, chiqing, siz ham men bilan ketasiz”, — deb qoldi. Ra’yini qaytarolmadim. Dahshatli jimlik hukmron edi. Talabalar shaharchasiga yetganimizda ustoz taksini to’xtatdi. Bu yog’iga 11-tramvayda ketamiz dedilar. Yana jimlik. “G’uncha” kinoteatrining oldiga kelganda u qaddini tutib urishmoqchi bo’lgan dakan xo’rozday menga tiklandi. “Haligi aytgan gapingiz balki to’g’ridir, balki shunday qilgandirman. Axir qachongacha chidaymiz eski tos, eski tog’oraga... Adabiyotimiz esa yangilanishni kutmoqda. Turklar uch marta yangilanish davrini o’tkazishdi. Boltiqbo’yidagilar esa adabiyotni tamomila boshqa yangi yo’lga burib yuborishdi. Faranglar, afrikaliklarni-ku, aytmasak ham bo’laveradi. Biz esa buni anglagan Cho’lpon, Fitrat, Bexbudiyarlarni go’rga tiqdik”.

U ko’zları yonib so’zlardi. “Adabiyotda eksperiment (tajriba) qilishdan qo’rqmasligimiz kerak. Buni men, siz — yoshlar qilmasangiz kimlar qiladi”, — dedi-yu, xayrlashmasdan ham jo’nab qoldi. Hali hamon ustozning chaqnagan ko’zları mening yozuv stolim ustida turadi.



Foydalangan adabiyotlar:

Internet manbalari.

Xurshid Davron kutubxonasining ma`lumotlari.